

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

● Gazeta 2023-yil 11-avgust, №32 (3042)



@ vatanparvar-bt@umail.uz

facebook.com/mudofaavazirligi

t.me/mv_vatanparvar_uz

instagram.com/mudofaavazirligi

t.me/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

SIYOSIY, MA'NAVIY-MORALIIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

ARTILLERIYACHILAR MASHG'ULOTINING HARORATI



4-5

Qo'shinlar
ta'minoti –
Qurolli
Kuchlarning
quvvat
manbayi



HAVO HUJUMIDAN
MUDOFAA
BO'LINMALARI
DALA CHIQISHIDA

9

www.mv-vatanparvar.uz





TA'MINOT TADBIRLARINING SAMARASI

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarining moddiy-texnik ta'minoti tizimida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning mehnatini munosib taqdirlash, ular tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, erishayotgan yutuqlarini e'tirof etish maqsadida qator chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda. Fikrimizni Mudofaa vazirligi Markaziy moddiy-texnik ta'minot bazasi faoliyati misolida davom ettiramiz.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida mustaqil tarkibiy bo'linma hisoblanuvchi markaziy baza moddiy-texnik ta'minot sohasida vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan teng manfaatli hamkorlik qiladi, tovar-moddiy boyliklarni iqtisodiyot tarmoqlaridan qabul qilish hamda ular bilan qo'shinlarni ta'minlashni tashkillashtiradi. Harbiy okrug qo'shinlarini tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlashni boshqarish, rejalashtirish, shuningdek tarkibiy bo'linmalarda operativ, jangovar va safarbarlik tayyorgarligi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi.

O'tgan davr mobaynida mazkur baza tomonidan qo'shinlarning moddiy-texnik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida va sifatli qanoatlantirish bo'yicha Mudofaa vazirligi qo'shinlarini kiyim-kechak, oziq-ovqat, avtomobil va zirhli tank anjomlari, harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan ta'minlab kelmoqda. Tibbiy ta'minot yo'nalishida harbiy gospitalar va qismlarni kerakli dori-darmon vositalari, dala-o'quv maydonlarini tegishli asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta'minlash, o'quv mashg'ulotlarini va sport tadbirlarini o'tkazish uchun sport inventarlari, madaniy va ma'rifiy yo'nalishda turli kitoblar, veterinariya-laboratoriya yo'nalishida insoniyat va hayvonlar uchun birdek yuqumli bo'lgan kasalliklarning oldini olish, ularga qarshi profilaktik tadbirlarni o'tkazish hamda oziq-ovqat mahsulotlarini davlat

standarti talablari asosida laboratoriya tahlillaridan o'tkazish ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

O'tgan davr mobaynida Prezidentimiz tomonidan Afg'oniston Islom Respublikasiga gumanitar yordam yuborish bo'yicha qo'yilgan vazifani sidqidildan bajarish, qolaversa, Turkiya Respublikasida sodir bo'lgan texnogen halokatlarda mamlakatimizdan yordamchi kuchlarni moddiy vositalar bilan o'z vaqtida ta'minlashda baza shaxsiy tarkibi o'z hissasini qo'shdi. Bu esa xalqimizning armiyaga ishonchini yuksaltirib, front orti ta'minoti shaxsiy tarkibining ko'p yillik tajribasi, mehnati, uzoq yillar mobaynida an'anaga aylanib ulgurgan safdosh, qardosh birodarlarga yordam berish singari o'zbekona fazilatlarini yaqqol namoyon etdi.

– Mudofaa vazirligining tegishli buyrug'iga asosan, har yili avgust oyining ikkinchi yakshanbasi Front orti ta'minoti mutaxassislari kuni sifatida nishonlanadi, – deydi podpolkovnik Rahmatulla O'sarov. – Qo'shinlarning moddiy-texnik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida va sifatli qanoatlantirish, yurtimizda sodir bo'lgan texnogen halokatlarning oqibatini bartaraf etish, Xalqaro armiya o'yinlarida qatnashuvchi shaxsiy tarkibni zarur vositalar bilan ta'minlash yo'lida qilinayotgan ishlar bu tarmoqni muhim bo'g'in sifatida e'tirof etishga arziydi. Front orti ta'minoti shaxsiy tarkibining ko'p yillik tajribasidan kelib chiqib, o'z ustimizda ishlab, har qanday vaziyatda

mustahkam irodani ko'rsatgan holda xizmat vazifalarimizni a'lo darajada bajarishimiz lozim.

YUQORI SIFAT SARI

Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan, Mudofaa vazirligining barcha harbiy qism va muassasalari bosqichma-bosqich autsorsing tizimiga o'tkazildi. Mazkur tizimga tadbirkorlik subyektlarini jalb etish natijasida respublikamiz aholisi uchun yangi ish o'rinlari yaratildi. Oziq-ovqat ta'minotini tubdan yaxshilash maqsadida oziq-ovqat me'yorlari qayta ishlab chiqildi va qo'shimcha mahsulotlar kiritildi. Harbiy qism va muassasalarda mavjud oshxonalar kapital ta'mirlanib, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Qo'shinlarni o'z vaqtida ovqatlantirish va dala sharoitida ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida zamonaviy avtomobil texnikalari va maxsus tirkamalar xarid qilindi. Yurt posbonlari iste'moli uchun sifatli mahsulotlarni yetkazib berish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida kolbasa, makaron, qadoqlangan asal va sariyog', konserva mahsulotlarini ishlab chiqarish zavodi tashkil etildi.

Harbiy xizmatchilarning yashash sharoitlarini yaxshilash, yotoqxonalarni zamonaviy jihozlash ishlari doimiy ravishda olib borilmoqda. O'tgan davr mobaynida qo'shinlarni zamonaviy harbiy kiyimlar bilan ta'minlash maqsadida ilg'or xorijiy armiyalar tajribalarini o'rganish natijasida yangi namunadagi harbiy dala kiyimlari va anjomlari ishlab chiqildi.

Qo'shinlarning jangovar shayligi, harbiy xizmatchilarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirish maqsadida o'quv mashqlariga jalb qilinadigan barcha turdagi texnikalar o'z vaqtida va uzluksiz ravishda yonilg'i-moylash mahsulotlari bilan

ta'minlanmoqda. Shu bilan birga qo'shinlarda yonilg'i quyish shoxobchalari qayta ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinishga keltirildi. Yonilg'i-moylash mahsulotlarini tashishga mo'ljallangan yangi rusumdagi maxsus texnikalar qo'shinlarga tarqatildi. Qo'shinlarda qabul qilinadigan yonilg'i-moylash mahsulotlari sifatini o'z vaqtida nazorat qilish maqsadida Ximmotologiya markazi hamda aviatsiya harbiy qismlari laboratoriya bo'limlari uchun zamonaviy jihozlar xarid qilindi. Moddiy-texnik vositalar va boshqa turdagi ta'minot yuklarini tashish, harbiy texnikalarni temiryo'l vagonlariga yuklashni o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida temiryo'l bekatlarda yangi ortish-tushirish joylari qurildi va mavjudlari kapital ta'mirlandi.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi Ta'minot departamenti tomonidan harbiy shaharchalarning infratuzilmasini yanada rivojlantirish, harbiy xizmatchilar va oila a'zolariga qulay sharoitlar yaratish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, vazirlik tasarrufidagi harbiy shaharchalarda qurilish va rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda yangidan barpo etish ishlari bajarilib, qator obyektlar foydalanishga topshirilmoqda.

Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilar ipoteka krediti asosida uy-joylar bilan ta'minlanmoqda. Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qismlarda ikki ming donadan ziyod quyosh fotoelektr stansiyalari va quyosh suv isitkichlari o'rnatildi. Moddiy-texnik ta'minot mutaxassislarning doimiy ravishda bilim va tajribalarini oshirib borish maqsadida statsionar va dala sharoitlarida ta'minot ishlarini tashkillashtirish bo'yicha o'quv-uslubiy mashg'ulotlar o'tkazib kelinmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar qatorida moddiy-texnik ta'minot yo'nalishidagi tadbirlar samarasi milliy armiya qudratini oshirishga xizmat qiladi.

Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
«Vatanparvar»



Yaqinda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori imzolandi. Unda xususan, “Vatanimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo‘lgan O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy jangovar qudratini oshirish va ma‘naviy salohiyatini yuksaltirish, “Xalq va armiya bir tan-u bir jondir!” tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ‘ib etish” vazifasi ham belgilab berilgan.



“BU JUDA KATTA GAP!”

Shunga ko‘ra, Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi tashabbusi bilan Surxondaryo viloyatining eng olis hududlaridan biri bo‘lgan Sariosiyo tumanida “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbiri o‘tkazildi.

Darhaqiqat, harbiy xizmatchilar aholiga xush kayfiyat ulashish, eng ulug‘ va eng aziz bayramimiz – mustaqillik shukuhini xalqimiz orasida keng targ‘ib etish ishlarida jonbozlik ko‘rsatmoqda.

Bayram tadbirida okrug qo‘shinlari qo‘mondonining o‘rinbosari polkovnik Isroil Sobirov, Mudofaa vazirligi mas‘ul ofitseri polkovnik Iskandar Mallayev so‘zga chiqib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ulug‘ ne‘mat – tinchlikning qadriga yetish haqida hayotiy misollar keltirdi.

Kecha davomida harbiy orkestr, Faxriy qorovul chiqishlari va vatanparvarlikka chorlovchi kuy-qo‘shiqlar barchada birdek taassurot qoldirdi. Vatan tinchligini asrash, uning har qarich yerini ko‘z qorachig‘idek himoya qilishdek ezgu g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan film namoyishi esa yosh-u qarini birdek to‘lqinlantirdi. Shu yerning o‘zida tashkil etilgan sport musobaqalari ham hech kimni befarq qoldirmadi.

– Bunday chiroyli bayram tadbirlari tumanimizda har kuni ham bo‘lavermaydi, – deydi “Niholzor” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Rustam Bo‘tayev. – Yoshlarimiz ko‘zidagi quvonchni ko‘rib, to‘g‘risi, o‘zim ham juda xursand bo‘ldim. Harbiylarimiz bugun nafaqat yurtimiz sarhadlarini asrash, balki vatanparvarlikka yo‘g‘rilgan mana shunday tadbirlarni tashkil etish orqali yurtdoshlarimiz ma‘naviy dunyosini ham munosib himoya qilmoqda. Bu juda katta gap!

Mamlakatimiz mustaqilligining 32 yillik bayramini munosib kutib olish, uni yuqori kayfiyatda o‘tkazishga qaratilgan bu kabi tadbirlar butun respublikamiz bo‘ylab davom etmoqda.



Katta leytenant
Islomjon QO‘CHQOROV,
«Vatanparvar»

Markaziy harbiy okrug hududida joylashgan “Kattaqo‘rg‘on” poligoni Mudofaa vazirligi artilleriya va boshqa qo‘shin turlari jangovar tayyorgarligini oshirish, taktik mashg‘ulotlarni o‘tkazish, barcha artilleriya qurollaridan otish amaliyotini yuqori darajada tashkillashtirish imkoniyatiga ega.



ARTILLERIYACHILAR



Mamlakatimizdagi eng katta poligonlardan biri sanalgan mazkur mahorat va shijoat maydonida harbiy xizmatchilarga yaratilib berilayotgan sharoitlar o‘tkazilayotgan har bir mashg‘ulot va unga qo‘yilgan vazifalarning samaradorligini ta‘minlamoqda. Yaqinda “Kattaqo‘rg‘on” poligonining ikkinchi o‘quv nuqtasidagi harbiy xizmatchilar yotoqxonasi, oshxona hamda boshqa binolar to‘liq ta‘mirlanib, foydalanishga topshirildi. Olib borilgan ishlar va artilleriya bo‘linmalarining jangovar shayligini ko‘zdan kechirgan mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov erishilgan yutuq va kamchiliklar bo‘yicha mas‘ul ofitserlarga yangi ko‘rsatmalar berdi. Mudofaa vaziri Kattaqo‘rg‘onga tashrifi davomida artilleriya, desantchilar hamda razvedka bo‘linmalarining mashg‘ulotlar jarayonini ham kuzatdi.

Yig‘in trevogasi bilan temiryo‘l eshelonlari va maxsus kolonnalarda Kattaqo‘rg‘on shahriga yetib kelgan Markaziy, Toshkent va Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okruglari artilleriya

bo‘linmalari o‘z vazifalarini bajarishga kirishdi. Bu jarayonda shaxsiy tarkibni tezkorlik bilan belgilangan hududga mobilizatsiya qilish harakatlari yana bir marta sinovdan o‘tkazildi. Harakat davomida texnik xavfsizlik qoidalariga to‘liq amal qilindi. Minglab gektarni tashkil etadigan dala-o‘quv maydoniga yetib kelgan yurt himoyachilari bir necha o‘quv joylarida artilleriya qurilmalarini jangovar shay holatga keltirish bo‘yicha nazorat sinovlaridan o‘tdilar.

Shu o‘rinda harbiy xizmatchilarning jangovar mashg‘ulotlardan tashqari zirhli harbiy texnikalar, artilleriya qurollari, ularni manzilga yetkazish uchun moslangan maxsus texnika vositalarini vagonlarga ortish va tushirish borasidagi mahoratini ham alohida e‘tirof etish o‘rinli. Reaktiv otish moslamalari, katta kalibrga ega gaubitsali va o‘ziyurar to‘plar, minomyotlar, BTR, Ural, KamAZ, Zil kabi og‘ir yuk mashinalari. Bularning barchasini poligon o‘quv nuqtalariga olib kelishning o‘zi o‘ta mas‘uliyatli ish ekanligini ko‘pchilik bilmasligi aniq.

Voqealarning real holatga yaqin bo‘lishini ta‘minlash maqsadida harakatlar boshqa qo‘shin turlari bilan birgalikda olib borildi. Qo‘mondonlik boshqaruv punktlari tashkil etilib, nishonlar joylashgan koordinatalar bo‘yicha divizion, batareya va to‘p hisoblariga ma‘lumotlar yetkazilib turildi. Amalga oshirilgan har bir harakat motoo‘qchi, havo-desant va boshqa jangovar bo‘linmalar, razvedka-qidiruv guruhlari bilan birgalikda muvofiqlashtirildi.

Bo‘linmaning jangovar shayligini ta‘minlash, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, xaritada mohirona ishlash va shaxsiy tarkibni oqilona boshqarish har bir komandirning yuksak bilimi va tajribasiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois o‘quv davomida divizion va batareya komandirlarining harbiy topografiya va taktik tayyorgarligi bo‘yicha ham bilimlari sinovdan o‘tkazildi. Buning natijasida bo‘linmalarning joylashuvi va uning harakatlanish yo‘nalishini belgilash, berilgan shartli belgilarni izohlash, xaritadan shartli dushman joylashgan hududning koordinatalarini aniqlash kabi qo‘yilgan

qator shartlar ular tomonidan muvaffaqiyatli bajarildi.

Ta‘kidlash kerakki, mazkur nazorat o‘quv mashg‘ulotlarining har bir o‘quv nuqtasida bajarilgan harakatlar malakali mutaxassislar tomonidan kuzatib borildi. Bu jarayon harbiy xizmatchilarning bilim va mahoratlarini xolisona baholash imkonini yaratib berdi.

Aniqlik, tezkorlik va yuksak jangovar qobiliyat. Bugun qo‘shinlarimizning barcha bo‘linmalari ana shunday sifatlarga ega deyish mumkin. Har bir qo‘shin turi, uning faoliyati qaysi yo‘nalishga qaratilgan bo‘lmasin, yurt himoyasi yo‘lida o‘ziga yuklatilgan vazifalarni to‘laqonli ado etib kelmoqda. Tajribali artilleriya mutaxassislari kartografiya, turli nishonga olish uskunalaridan foydalanish, kunduzi va kechki vaziyatlarda artilleriya nishonini yo‘naltirish bo‘yicha nazariy bilimlarini amalda ko‘rsatib berishdi. Ular qanday holatlarda minomyot va artilleriya hisoblaridan yakka hamda bir vaqtning o‘zida batareya yoki divizionlar ishtirokida o‘t ochishga buyruq berilishi yuzasidan aniq va tezkor qarorlarni qabul qilishdi.





MASHG'ULOTNING HARORATI



Mualif suratga olgan

– To'g'risini aytganda, mudofaa vazirining artilleriya bo'linmalari jangovar shayligini kuzatish uchun Kattaqo'rg'onga kelishi barchamiz uchun belgilangan topshiriqlarni yanada ko'proq mas'uliyat va ko'tarinki ruh bilan bajarishimizga sababchi bo'ldi, – deydi divizion komandiri kapitan Jamshid Rajabov. – Jangovar harbiy texnikalar hamda artilleriya qurollarining bir necha kilometrlik kolonnasida harakatlanganimizda, o'quv nuqtasiga otish uzoqligiga qarab joylashtirilgan vaziyatda o'zimizni xuddi harbiy paradda ishtirok etayotgandek his qildik. Bo'linmalar mudofaa vaziriga yangi taktik usullarni namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Umuman olganda, bu safargi mashg'ulotlar ancha samarali o'tganligini alohida ta'kidlagan bo'lardim.

– Asrlar davomida artilleriya qurollariga samarali jang olib borish vositasi sifatida qaraladi. O'tgan vaqt davomida ulardan foydalanish uchun turli taktik uslublar qo'llanilib kelingan. Biz tarixda muhim janglar taqdirini hal qilgan ana shunday uslublarni unutmagan holda, zamovaviy

jang olib borishning yangi-yangi jihatlarini o'zlashtirib bormoqdamiz, – deydi to'p komandiri I darajali serjant Boburbek Abdusalomov. – Bugungi kunda artilleriya bo'linmalari harakatlari uchuvchisiz uchish apparatlari bilan muvofiqlashtirilib borilayotgani hech kimga sir emas. Dushman kuchlari joylashgan hudud aynan ular yordamida aniqlanib, artilleriya zarbalarini o'sha nuqtalarga yo'naltirish mumkin. Bundan tashqari, dushmanning razvedkachi uchuvchisiz uchish apparatlari e'tiboriga tushmasdan o't ochish nuqtasini tez-tez o'zgartirib turishi kabi turli taktik uslublarning qo'llanilishi bo'linmalardan "daydi guruh" bo'lib harakatlanishni talab etmoqda. Bunda "daydi guruh"ning vazifasi asosan nishonga qarata o't ochgandan keyin zudlik bilan o't ochish joyini o'zgartirishdan iborat bo'ladi.

Misol uchun, avvallari artilleriya bo'linmalari qulay himoya yoki hujum pozitsiyalarga joylashib, jang olib borgan. Endilikda qulay pozitsiyaga joylashishdan tashqari niqoblanish, nishonga qarata o't ochgandan keyin zudlik bilan o't ochish

joyini o'zgartirish, uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida olingan ma'lumotlar asosida nishonni aniq va kam o'q-dori sarflagan holda yo'q qilish kabi muhim jihatlar bo'yicha harakat qilmoqdamiz. Ko'rib turganingizdek, artilleriya qurilmalari cho'l sharoitiga moslashtirilib, turli niqoblanish usullaridan foydalanilmoqda. Nishonlarga qarata avvaliga yakkalik, so'ngra batareyadagi barcha to'plardan bir vaqtning o'zida o't ochish shartlari bajarildi. Har ikki holatda ham kam snaryad sarflanib, aniqlik yuqori bo'lishiga erishdik.

Zamonaviy jang olib borish strategiyasi har bir davlatning harbiy xizmatchisidan uzluksiz ravishda izlanib, kasbiy malakasini takomillashtirib borishni talab etishiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Shu ma'noda bugungi kunda jangovar bo'linmalar oldida turgan vazifalar ham o'ta mas'uliyatli. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun yuksak tayyorgarlikka ega bo'lgan professionallar, strategik va taktik fikrlovchi komandirlar bo'linmalarga yetakchilik qilishi zarur. Artilleriyachilar va boshqa qo'shin turlari bilan o'tkazilgan

mashg'ulot davomida harbiy xizmatchilar bo'linmalarni boshqarish, nostandart qarorlar qabul qilish, eng muhimi, qo'shinlar hamkorligining o'ziga xos muhim jihatlarini sinovdan o'tkazish imkonini berdi.

"Kattaqo'rg'on" poligonidagi mashg'ulotlar artilleriyachilar va boshqa qo'shin turida o'z burchini o'tayotgan harbiy xizmatchining chidamliligini, matonati va mahoratini sinovdan o'tkazuvchi maydon ekanligiga ko'p martalab guvoh bo'lganmiz. Negaki, bu yerda yilning har bir faslida tabiatning qahraton sovug'i, jaziramas, yog'ingarchiliklari bilan ham kurashishga to'g'ri keladi. Ana shunday sharoitda toblangan har qanday Vatan himoyachisi kindik qoni to'kilgan muqaddas zaminning har bir qarichini, zarrasini ko'z qorachig'idek asrash eng oliy maqsadi ekanligini anglab yetadi. Bu safar mashg'ulotlar yozning jazirama issiq kunlariga to'g'ri keldi va bu harorat artilleriya olovining harorati bilan qorishib ketdi.



Asror RO'ZIBOYEV, «Vatanparvar»

“QALQON — 2023” —

BIRINCHI

Mintaqada o‘z nufuziga ega bo‘lgan O‘zbekiston Mudofaa vazirligi ko‘pgina davlatlar bilan xalqaro harbiy hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlab bormoqda. Yaqinda ozarbayjonlik hamkasblari bilan o‘zaro tajriba almashgan harbiylarimiz qozog‘istonlik safdoshlarini ham munosib kutib oldi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston Mudofaa vazirliklari o‘rtasida tuzilgan harbiy hamkorlik rejasiga muvofiq, Markaziy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonligi boshchiligidagi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Modellashirish va simulyatsiya bo‘yicha tadqiqotlar dala-o‘quv markazida ikki davlat harbiy bo‘linmalarining birgalikdagi maxsus-taktik o‘quvining birinchi bosqichi kompyuter qo‘mondonlik-shtab o‘quvi shaklida o‘tkazildi.

Bugun dunyoda kechayotgan qurolli to‘qnashuvlar qo‘shinlarda jang olib borishning zamonaviy usul va uslublarini amaliyotda keng qo‘llash, xorijiy davlatlar armiyasi bilan tajriba almashish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ekstremal vaziyatlarga doimo shay turish, eng so‘nggi texnologiyalar yordamida ko‘nikmalarni muntazam oshirib

borishni taqozo etmoqda. Mazkur o‘quvda ham ayni shu jihatlarga alohida e‘tibor qaratildi.

– O‘zbekiston va Qozog‘iston harbiy xizmatchilari hamkorligidagi qo‘shma maxsus-taktik o‘quvining kompyuter qo‘mondonlik-shtab o‘quvida ishtirok etdik, – deydi mayor Navro‘z Fayziyev. – Bo‘linmalarni simulyatsiya vositalari orqali bir necha qo‘shin turlari bilan birgalikda boshqarish, ikki davlat chegaralariga bostirib kirgan shartli dushmanni aniqlash hamda artilleriya, havo hujumidan mudofaa, harbiy havo kuchlari va boshqa bo‘linmalar bilan birgalikda dushmanni yo‘q qilish borasidagi taktik ishlar simulyatsiya vositalari orqali turli xil epizodlar orqali amalga oshirildi.

Texnika va texnologiyalar rivojlanib borayotgan bugungi kunda masofadan turib qo‘shinlarni boshqarish,

dushman kuch-tuzilmalariga qarshi kurashish va jang taqdirini oldindan taxminiy belgilash qiyin emas. Birgalikdagi mazkur o‘quvda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har bir holat baholanib, keskin vaziyatlarda harakatlanish, tezkor qaror asosida vazifalarni a‘lo va betalafot uddalash masalalari ko‘rib chiqildi. Ishonch bilan ayta olamizki, qo‘shinlarimiz tezkor va yuksak jangovar qobiliyatga ega. Buni ikki davlat harbiy bo‘linmalarining birgalikdagi maxsus-taktik o‘quvidagi jarayonlarda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

– An‘anaga aylanib ulguragan birgalikdagi o‘quv mashg‘ulotimizning bu yilgi bosqichi davlatlarimiz chegara daxlsizligiga raxna solishi mumkin bo‘lgan shartli dushmanga qarshi bo‘ladigan

taktik harakatlarni kompyuterda modellashtirish va simulyatsiya vositalari orqali ularga qarshi turli variantlarda hujumni amalga oshirishga qaratilgan edi, – deydi Qozog‘iston Mudofaa vazirligi vakili polkovnik Arman Temirbekuli. – Modellashirish va simulyatsiya vositalari orqali amalga oshirilgan taktik hujumlarimiz mashg‘ulot so‘ngida muhokama qilindi. Kompyuterda maxsus programma orqali shartli dushmanni yakson etishga qaratilgan taktikamiz to‘liq va a‘lo darajada ado etilganligi e‘tirof etildi. Shuni alohida aytib o‘tishim kerakki, ushbu o‘quvga puxta tayyorgarlik ko‘rilgan. Yaratilgan shart-sharoitlar va mehmondo‘stlik uchun barcha mas‘ullarga minnatdorlik bildiraman.

Poytaxtimizda joylashgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik





BOSQICH YAKUNLANDI

majmuasidagi Ikkinchi jahon urushi yillaridan so'zlovchi va o'sha davr ruhini o'zida aks ettirgan turli eksponatlar nafaqat yurtimiz aholisini, balki xorijliklarni ham befarq qoldirmaydi. Bir on bo'lsa-da, inson ko'z oldidan uzoq o'tmish, ota-bobolarimizning jasorati-yu matonati aks etgan oq-qora tasvirlar o'tadi. Mazkur hududdagi "Shon-sharaf" davlat muzeyi esa sizni beixtiyor tarix tomon yetaklaydi. Qozog'istonlik mehmonlar ham ushbu maskandagi sayohati davomida har ikki davlat xalqlarining azal-azaldan qardoshligi-yu bir yoqadan bosh chiqarib yelkadosh bo'lgani, xalqlarimizning og'ir kunlarni birga yengib o'tganini yana bir bor chuqur his etdi.



Shundan so'ng mehmonlar Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida ham bo'lib, u yerda kursantlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Kunning ikkinchi yarmida Modellashtirish va simulyatsiya bo'yicha tadqiqotlar dala-o'quv markazida besh kun davom etgan birgalikdagi maxsus-taktik o'quv yakuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda har ikki mamlakat harbiy xizmatchilarining mazkur o'quvda o'rttirgan tajriba va natijalari tahlil etilib, esdalik nishon va sovg'alar ulashildi.

Ayni damda O'zbekiston va Qozog'iston Mudofaa vazirliklari o'rtasida tuzilgan harbiy hamkorlik rejasiga muvofiq o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlar qo'shni Qozog'iston Respublikasida davom etmoqda.



Sherzod SHARIPOV,
«Vatanparvar»

SHARTLI NISHON YAKSON QILINDI

Ko'plab harbiy ekspertlar zamonaviy, ixcham va manyovrchan qurol-yarog'larning rivojlanib borishini inobatga olib, endi janglar taqdirini tanklar hal qilmaydi, degan fikrni ilgari surib kelmoqda edi. Ammo dunyoda ro'y berayotgan harbiy mojarolar shuni ko'rsatmoqdaki, tanklar hali-hamon urush dinamikasini belgilashda asosiy vazifani bajarmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bugun milliy armiyamizda zirhli texnikalarni puxta o'zlashtirish bilan bir qatorda, ularga qarshi qo'llaniladigan vositalardan ham samarali foydalanishga alohida ahamiyat berilmoqda.



Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi mutaxassislari, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti professor-o'qituvchilari hamda vazirlik qoshidagi markaz yo'riqchilarining navbatdagi manzili "Termiz" umumqo'shin dala-o'quv maydoni bo'ldi. Bu yerda tankka qarshi boshqariluvchi raketa komplekslarini jangovar qo'llash bo'yicha navbatdagi o'quv-uslubiy yig'in tashkillashtirildi.

Dastlab o'quv nuqtalarida mazkur raketa komplekslarining

rivojlanish tarixi, jang maydonidagi samaradorligi, taktik-texnik tasnifi, ishlash prinsipi, talafot yetkazish xususiyatlari, qism va mexanizmlarining mo'ljallanishi haqida yig'in ishtirokchilariga batafsil ma'lumot berildi. Shundan so'ng uni jangovar texnikaga xavfsiz o'rnatish, safar holatidan jangovar holatga o'tkazish, nishonni bexato urishda ahamiyat qaratish lozim bo'lgan jihatlar haqida to'xtalib o'tildi.

Nazariy ko'nikmalar yetarlicha bo'lgach, o'quv-uslubiy yig'in rejasiga muvofiq, ishtirokchilar poligon tomon yo'l oldi. U yerda tashkil etilgan ko'rgazmali otish mashg'ulotida shartli dushman jangovar texnikasi tankka qarshi boshqariluvchi raketa komplekslari yordamida yakson qilindi.

Jarayonni oliy harbiy bilim yurtlarini yaqinda bitirib, qo'shinlarga kelib qo'shilgan yosh ofitserlar tarkibi ham bevosita kuzatib bordi.

Podpolkovnik Farhod SUPIYEV,
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik
bilim yurti katta o'qituvchisi,
podpolkovnik Ruslan RAJAPOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi o'qituvchisi

HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA BO'LINMALARI DALA CHIQISHIDA

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning o'quv yiliga belgilangan tayyorgarlik rejasiga asosan, "Nukus" umumqo'shin poligonida Nukus va Urganch garnizonlarida joylashgan quruqlikdagi qo'shinlar havo hujumidan mudofaa bo'linmalari bilan bir necha kunlik aviatsiyaning intensiv uchish hududida dala chiqishi amalga oshirilmoqda. Mashg'ulotlar davomida bo'linmalarning jipsligi, jangovar tayyorgarligi hamda har qanday vaziyatda yuklatilgan vazifalarni bajarish imkoniyati nazoratdan o'tkazilyapti.

Albatta, yer va samodagi shartli dushman texnikasiga qarshi zenit qurilmalarini qo'llash orqali taktik vazifalarni bajarish, maxsus to'siqli yo'lakni yengib o'tish kabi amaliyotlarni havo hujumidan mudofaa bo'linmalari bu safar ham muvaffaqiyatli bajarmoqda.

Poligon hududiga yetib kelgan mutaxassislarning saf ko'rigi, mashg'ulot rahbarlari va shaxsiy tarkibning tayyorgarligi okrug havo hujumidan mudofaa bo'limi ofitserlari tomonidan ko'rib chiqildi. Amaliy mashg'ulotlarda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish bo'yicha yo'riqnoma yetkazildi. Yozning jazirama kunlarida quyoshning olovli taftidan butun borliq isib ketganiga qaramay, havo hujumidan mudofaa bo'linmalari dala chiqishi rejasida belgilangan barcha jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini sifatli bajarishga erishmoqda.

Kundalik qat'iy tartib avvalo jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlaridan boshlanadi. Tongni quyoshdan oldin qarshi olayotgan zenitchilar uchun sog'lom turmush tarzi, kunlik badantariya odat bo'lib qolgan aslida. Mashg'ulotlar qizg'in bahs, munozara va mulohazalarga boy bo'lib, bunda hayotiy tajriba, o'qib-izlanish orqali o'rnatilgan bilimlar o'tilayotgan mavzularga yanada ko'proq mazmun bag'ishlamoqda. Kompyuterlashtirilgan panoramali trenajyorlar, zenit komplekslari o'qotar qurollardan samarali o'q otishni o'rgatishga xizmat qilib, amaliy ko'nikmalarning mustahkamlanishini ta'minlamoqda.

Mashg'ulotlar davomida bo'linmalar qo'mondonlik punktlari, havo hujumidan mudofaa boshqaruv punktlari, shuningdek asosiy kuchlardan alohida joylashgan zenit bo'linmalarining o't ochish pozitsiyalarini tanlashi, jihozlashi, ularni muhofaza etishi kabi masalalar ko'rib chiqilmoqda.

Keyingi o'quv nuqtasida ko'chma zenit raketa kompleksini ishga tushirish va nishonlarni yakson etish vazifasi belgilangan. Mashg'ulot dala trenajyorida real vaziyatga yaqinlashtirilgan tarzda olib borildi. Bunda zenitchilar havo nishonlarini aniqlash va yo'q qilishni mashq qilgan bo'lsa, dala chiqishi doirasida havo hujumidan mudofaa bo'linmalari mutaxassislari to'siqli yo'lakdan o'tish mashqlarida qatnashib, jismoniy kuch va epchilliklarini namoyon etdi.

Yana bir o'quv joyida zenit qurilmasini jangovar shay holatga keltirish bo'yicha estafeta o'tkazilib, zenit hisoblarining jangovar tayyorgarligi sinovdan o'tkazildi. Musobaqa shaklida o'tkazilgan mashg'ulot soha mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlarining ortishida, sohaga endi kirib kelgan yosh harbiy xizmatchilarning ko'nikmasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Berilgan topshiriqdan so'ng zenit hisoblari tomonidan qurilmalar o'qlanib, jangga tayyor holatga keltirildi. Nishongacha bo'lgan masofalar, shamol tezligi va o'q otishga ta'sir etuvchi boshqa omillar qurilma komandiri va nishonga oluvchi tomonidan inobatga olinib, qurilmaga dastlabki kiritmalar o'rnatildi. Qisqa va uzun navbatlar bilan otilgan snaryadlar nishonlarni talafotga uchrata boshladi. Amaliy mashg'ulotlar davomida qurilmalar hisobi o'quv-jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarishga erishdi. Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar ham bu mashg'ulotlarda faol qatnashib, soha bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'ldi.

Kunduzgi mashg'ulotlardan keyin harbiy xizmatchilar zenit qurilmalaridan yer va havodagi nishonlarni tungi sharoitda ham yo'q qilish bo'yicha amaliy harakatlarni olib bordi. Bo'linmalarining birdamlikdagi harakati ekstremal holatlarda ham vazifalarni bajarishga intilishini oshirishga xizmat qilgan, dala chiqishi davomida jangovar va axloqiy-ruhiy fazilatlariga alohida e'tibor qaratildi.



Podpolkovnik Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig'i

“Men xoin emasman...”

O'ZBEK FOLKLORINING HIMOYASI YO'LIDA
QATAG'ON QILINGAN SHOKIR SULAYMON



Azim Qo'qon shahridan yetishib chiqqan jadidlar XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining maorifi, madaniyati, siyosiy jarayonlardagi faoliyati bilan yorqin iz qoldirgan. Jumladan, Ashurali Zohiriy, Abduvahob Ibodiy, Muhammadjon Xoliqiy, Akbar Islomov, Nazir To'raqulov va shu kabi ko'plab ziyolilar o'lkada ilg'or g'oyalarning yoyilishida o'zining munosib hissalarini qo'shgan. Qo'qonlik taraqqiyparvar yoshlar ichida ayniqsa Shokir Sulaymonning ham alohida o'rni va roli bor.

Shokir Sulaymon 1900-yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan. Uning otasi Sobirxo'ja ilmi inson, onasi Tiniqoy ham o'qimishli ayol bo'lganligi manbalardan ma'lum. Shokirning birinchi ustози otasi Sobirxo'ja bo'lib, keyingi ta'limni qo'qonlik jadid Abduvahob Ibodiyning "Irfon" maktabida davom ettiradi. Abduvahob Ibodiy o'z maktabida mukammal ta'lim tizimini ishlab chiqqan, ushbu maktabdagi tahsil, shubhasiz, yosh Shokirning hayotida muhim o'rin tutdi.

Bo'lajak adib, shoir va nosir Shokir Sulaymon 1912-yildan boshlab Qo'qondagi rus-tuzem maktabida, 1917-yildan esa Orenburg shahridagi Husayniya madrasasida o'qishni davom ettirdi. Husayniya madrasasi 1891-yildan faoliyatini boshlagan va o'z navbatida, tatar taraqqiyparvarlarining harakat markazlaridan biri edi. Shokir Sulaymon bu yerda yosh jadidchilik g'oyalarning ijtimoiy-siyosiy jihatlarini to'g'risida ham keng ma'lumotga ega bo'ladi. U 1921-yilda madrasani tamomlab, Qo'qonga qaytadi va pedagoglik faoliyatini boshlab yuboradi.

Shokir Sulaymon 1922-yilda tuzilgan "Ko'mak" uyushmasining faoliyatida ham faol ishtirok etdi hamda millat boylarini ushbu ezgu ishda jonbozlik ko'rsatishga da'vat qilib, o'zining ko'plab she'r va maqolalarida mazkur tashabbusni olqishladi. Jumladan, u "Turkiston" gazetasining 1923-yil 1-yanvar sonida chop etilgan "Ovro'pada Turkiston o'quvchilari" nomli maqolasida "Chetda o'quvchi bolalarini yo'qlab turg'on boshqa millatlar kabi bizning Turkiston ziyolilari, maorifparvarlari ham

o'zlarining "jiyda xaltalari" bilan chetdagi o'quvchilarini yo'qlasalar, yordam etsalar, yaxshi bo'lur edi. Yurti, elidan uzoq turg'on o'quvchilar Turkistondan shuni kutarlar. Shunday bo'lsa, istipendiyasiz turg'on yuzlab o'quvchilarimizga biroz madad bo'lur edi. Yurtidagi kamchiliklarni ko'rib, yuragi achinadurg'on yoshlarimizning kundan kun, yildan yilga ko'payishi lozimdir", deb yozdi. Bundan tashqari, u Moskvadan turib Turkiston davriy matbuotida "Uchqun" nomli she'rini e'lon qilib, unda muallif Germaniyaga o'qishga yuborilgan o'quvchilarni uchqunga o'xshatadi va bir kun kelib, ular nur bo'lib vatanga qaytishiga, jaholat, ilmsizlik soyasi ostida zulmatga cho'mgan Turkiston zaminini yoritishiga umid bildiradi:

*Chetda uchqun, chetda yolg'in
gurkirab kuchli yonar;
Yong'on o't o'chmas, biroq zo'r
yoqitliq, shu'la berar.
Qop-qorong'i tilsimot, yo'lsiz
yobon Sharq ustiga,
G'arbdagi dard yolg'ini bir kun
chiqib uchqun sochar...*

Shokir Sulaymon o'z bilimini oshirish maqsadida Moskva davlat universitetining filologiya fakultetida o'qishni davom ettiradi. Talaba Shokir tahsil olish bilan birga, Moskvada ilm olayotgan turkistonlik yoshlarning muvaffaqiyatlari xususida ham muhim ma'lumotlarni davriy matbuot nashrlariga xatlar orqali ma'lum qilib borgan.

Masalan, u "Moskovda adabiyot to'garagi" nomli xabarida turkistonlik yoshlar tomonidan Moskvada tashkil etilgan adabiyot to'garagi to'g'risida ma'lumot beradi: "Moskovda o'rta, oliy bilim yurtlarida o'qig'uvchi

turkistonlik o'zbek, qirg'iz, qozoq istudentlarining yaqinda adabiyot to'garaklari ochildi. To'garakning tub maqsadi Moskovda o'qig'uvchi Turkiston istudentlarini bir nuqtaga to'plab, maxsus leksiyalar vositasi bilan siyosiy, ilmiy, fanniy kuchlarini o'stirmoq va Turkiston jumhuriyatining Moskov vakolatxonasi bilan yaqin aloqada bo'lub, Turkiston istudentlarini har yoqdan ta'min etmak va ko'paytirishga tirishmoqdir. To'garakning: 1) Maorif va madaniyat; 2) Adabiyot-nashriyot; 3) Moddiy ta'minot bo'limlari bo'lub, prezidiumga Akmal Ikromov, Botu, Shokir Sulaymon, Hanafiy Burnash, Abdulla Qamchinbek o'rtoqlar saylandilar. To'garak jiddiy ishga kirishib, Turkiston o'quvchilariga tezlikda yordam qo'lini cho'zar, ishchi-yoshlar bilan juda yaqin aloqada bo'lur".

Bundan tashqari, u "Dorulfununga yana 5 kishi" nomli maqolasida Moskvada tahsilni tamomlagan Fayzulloh Rahimboyev o'g'li (Xo'jand), Olimjon Halim o'g'li (Qo'qon), Vose Muhammadiy Qayyum o'g'li, Otajon Hoshim o'g'li, Sayyidg'ani Valiy o'g'li (Toshkent) ni o'zlari istagan fakultetlarga muvaffaqiyatli kirganliklari bilan tabriklaydi.

Alohida qayd etish kerakki, uning ijodiy merosi aynan ana shu talabalik yillarida gurkirab rivojlandi. Jumladan, u "Turkiston", "Farg'ona", "Yangi Farg'ona", "Qizil bayroq" gazetalari hamda "Maorif va o'qitg'uvchi" kabi jurnal sahifalarida o'zining ko'plab maqola va she'rlari bilan ishtirok etdi. Shu bilan birga, u "Erk kuylari", "G'alaba marshi", "Yangi saroy", "Davr hayqirig'i", "Ikki yo'l", "Saylanma", "O'tganlarni eslaganda", "Surgun Sayfiy" nomli she'riy to'plamlar hamda "Achchiq xotiralar", "Kolxozda", "Jama ham Hamo", "Yosh ixtirochi", "Sayohat", "Hindistonda", "Jim ham Ellen", "Butun dunyoga sayohat", "Yangi turmushda", "Baxtli Halima", "Podachi", "Bizda ham ularda", "Parij bolalari", "Farmuza otasi" kabi nasriy asarlarni ijod etdi. Shokir Sulaymon tarjimon sifatida ham A. Mixaylovning "Spartak", V. Biankinning "Bu kimning oyoqlari?" "Kakku bolachasi", "Qush qanday sayraydi?" va shu kabi ko'plab badiiy asarlarni o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Shokir Sulaymonning Turkiston davriy matbuotida maqolalari ayniqsa o'zining milliy ruhda ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, "Farg'ona" gazetasining 1923-yil 15-aprel sonida chop etilgan "Xalq adabiyoti", xuddi shu gazetaning 1923-yil 24-avgustda e'lon qilingan "Milliy kuy va ashulalarimiz" nomli maqolalari shular jumlasidandir. Shokir Sulaymon "Xalq adabiyoti" nomli maqolasida o'zbek xalqining jonkuyar folklorshunos muxlisi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif mazkur maqolada adabiyotni xalq adabiyoti va qalam adabiyoti kabi ikki qismga bo'lib, ushbu ikki adabiyot turiga o'z ta'riflarini bergan. Shokir Sulaymonning fikricha, xalq adabiyoti bu xalqning o'zidan – otadan bolaga, boladan o'g'ilga, og'izdan og'izga, bo'g'umdan bo'g'umga, quloq bilan eshitilib kelib, doim xalqning o'zi bilan birga jonli tarixiy tarjimayi holi bo'lib yetib keladigan adabiyotdir. Qadimgi hikoyat – ertak, afsona,

topishmoqlar, masal va maqollar, ashula va laparlar, bular xalq va yo og'iz adabiyotidir, deydi muallif. Qalam adabiyoti esa muharrirlar, shoir va adiblar tarafidan turli ustaliq nasr, nazm bilan yozilg'on teatru ro'mon, qissa, hikoyat va boshqa turli tasviriy majmua asarlardirki, buning ham o'qub foydalanguvchisi yana shu yozg'uvchilar, o'qish va yozishni bilgan savodli kishilar hisoblanadi.

Muallif xalq adabiyotiga nisbatan o'zbek yoshlarining bepisandligi, folklor namunalarini yig'ishga nisbatan harakatning sustligidan xafa bo'ladi: "Moskovda chiqadurgan rasmiy bir jurnalga: "O'zbek adabiyoti, aynuqsa xalq adabiyoti to'g'risida bir narsa taftish va qarash yozib bering", deyilganda, bir nechalar qarashib ko'rib, qo'lda tayyor bir narsa bo'lmag'onligidan qizarub javob berishdan boshqa bir narsaga yaramadiq. Lekin unda-munda Farg'onada yurgan vaqtlarda o'rtoqlarimizning tillaridan suyib aytilgan ashula-qo'shiqlardan oz-moz parchalar bilsak ham, borlig'imizni durustroq ko'rsatishga hech bir iktifo qilib bo'lmaydurg'on darajadadur. Oxirida shuni deyish kerakki, Farg'onada 4-5 yillik bir o'zgarishda, aynuqsa bosmachilar davrida tarix ulgurtirib, bitkizib ololmayturg'on qiziq xotirali, fojiali va dahshatli hollar kechirdi. O'ylamayman, hech bir yozg'uvchi muvarrix Farg'onaning sirli, qonli tarixin xalq adabiyoticha ochub, yozub, aytub bera olmaydur. Bilganimizcha: Farg'onada o'tmish qo'rboshilar, beklar, ularning kechirmish kunlari, xotiralar va shu zamonda hukumatga qarashlari, ularning tilaklari nihoyat o'lishlari, bitishlari – hammasi aynan nuqtama-nuqta o'zining usta, mahoratli to'qig'uvchilari tarafidan to'qilib qolinmishdur va to'qilmoqdadur. Bir necha yillar davom etgan o'zining kuyli, jonli hazin ovozlari bilan Farg'ona cho'llarida, sahrolarida, tog'larida, dalalarida eshitilar-da tarixning shoshig'chiligi orqasida jonli kuylari, ismlari tez unitilur. Mana shu kun sayin, soat sayin har qishloqda, har shaharda chiqib turgan va turadurgan xalq adabiyotining kuylarin notaga oldirish qo'limizdan kelmasa, bo'ldira olmasaq ham, aqalli, so'zlarin, qiymatli borliqlarin saqlab qolish biz, yoshlar, qalam ahlilari uchun farzi ayndir". Shokir Sulaymon ushbu maqolasida milliy istiqol qahramonlari to'g'risida kuylangan noyob xalq og'zaki ijodi bo'lmish she'rlardan ham namunalar keltirgan:

*Bek akamlar soy kechdi, omon yor;
Shohi to'nini yechdi, omon yor;
Din va islom yo'lida, omon yor;
Aziz jonidan kechdi, omon yor.*

Aytib o'tish kerakki, ushbu maqola yozilgan paytda Turkiston o'lkasida istiqolchilik harakati ayni avjiga chiqqan, minglab o'zbek yigitlari qo'llariga qurol olib, mustamlakachi sovet hukumatiga qarshi mardonavor jang olib borayotgan paytlar edi. Shokir Sulaymon esa ushbu maqolasida Turkiston uchun kurashayotgan qo'rboshilarni milliy qahramon sifatida e'tirof etib, ular to'g'risida xalq ichida aytilayotgan, kuylanayotgan she'r va qo'shiqlarni asrab-avaylashga da'vat etdi: "Shuning uchun men Turkiston, aynuqsa Farg'ona yoshlaridan, qalam egalaridan so'rar edim: "Har qaysingiz yo'qsul elimizning

qorong'i, ongsiz, bilimsizligi o'zimizning hammadan ham pastda – tubanligimizni esda tutib, birdan bir elimizning kelgusi bolalariga umrlik bir sovg'a qilishlik niyati ila va chindan xalq adabiyotini yig'ishga urininggiz... Mumkin qadar markazdan borgan va ham hay'atimiz tomonidan yuborilgan va yuboriladurgan o'rtoqlarga berib, kerakli haqinggizni olishingiz bilan barobar bo'yinggizda bor bir xizmatni ado qilg'on hisoblanar edingiz".

Shu bilan birga, Shokir Sulaymonning "Farg'ona" gazetasining 1923-yil 24-avgust sonida chop etilgan "Milliy kuy va ashulalarimiz" nomli maqolasi ham uning nechog'liq xalq adabiyotini asrab-avaylashda fidokor shaxsiyat bo'lganligini anglatadi. Muallif ushbu maqolasida har bir elning va har bir xalqning yuragidan qaynab chiqqan oh-zorlarini, shodlik va qayg'ularini o'z ohang va ruhiga muvofiq kuylari, ashulalari va shu kuy, ashulalarni xalqning o'ziniki qilib aytadigan qo'shiqchilari borligini qayd etib, xalqning aksariyati, xususan omma qismi har vaqt o'z ashulachilari bilan faxrlanib, shularni eshitib, ruhlarini sug'orib, tetiklantirishlarini yozadi.

Shokir Sulaymon 1926-yilning avgustidan 1929-yilgacha Samarqandda tuzilgan "Qizil qalam" adabiy jamiyatining raisi sifatida faoliyat olib bordi. U ushbu jamiyat ishlarida ishtirok etgan holda, "Qizil qalam" adabiy majmuasini yangidan yangi asarlar bilan boyitishda faollik ko'rsatdi. Jumladan, u adabiy almanax yaratish uchun "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1926-yil 8-dekabr sonida "Butun o'zbek adib va shoirlarig'al" nomli e'lon xabarini chop ettirdi. Shokir Sulaymon bu e'lonida Moskva, Leningrad, Berlin, Baku va boshqa shaharlardagi yosh kuchlarni ishga solgan holda, o'zbek adabiyoti maydonida zo'r namoyish qilish tilagidaligini bildirib, almanax uchun yuboriladigan adabiy namunalariga bu kungacha matbuotda ko'rilmag'an, yozilmagan yangi narsalar bo'lishi kerakligini shart qilib qo'yadi.

Afsuski, qattol tuzumning qonli qilichi aksariyat o'zbek ziyolilari qatori qahramonimizni ham chetlab o'tmadi. Iste'dodli shoir, nosir va folklorshunos Shokir Sulaymon 1941-yilning 27-avgustida qamoqqa olindi. U O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-67-moddalari, ya'ni "Aksilinqilobiy faoliyat olib borganlikda", Turkiston jadidlarining "Milliy ittihad" maxfiy tashkilotiga a'zolikda, milliy kuy va qo'shiqlarni targ'ib qilganligi uchun millatchilikda ayblandi. Garchi sovet hukumati 1956-yilda xotini Zaynab Mirsalimovaga eri Shokir Sulaymonning 10 yilga mehnat tuzatish lageriga hukm qilinganligini ma'lum qilgan bo'lsa-da, u 1942-yilning 22-dekabridayoq otib tashlangan edi.


O'zbek adabiyotining, xususan o'zbek folklorining jonkuyar himoyachisi, tolmash targ'ibotchisi Shokir Sulaymonning tergov bayonnomasiga yozgan so'nggi so'zi quyidagicha bo'ldi: "Men xoin emasman!"

Shokir Sulaymon 1956-yil 27-sentabrda oqlangan.

Muslimbek ALIJONOV,
"Qatag'on qurbonlari
xotirasi" davlat muzeyi
katta ilmiy xodimi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida Bangladesh Xalq Respublikasi Qurolli Kuchlari Milliy mudofaa kollejining aviatsiya vitse marshali Muhammad Kamrul Islom boshchiligidagi delegatsiya ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi.

XALQARO ALOQALAR MUSTAHKAMLANMOQDA



O'zbekistonning ko'plab xorijiy davlatlar bilan turli sohalardagi do'stona aloqalari yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Buni oliy harbiy ta'lim yo'nalishida amalga oshirilayotgan tadbirlar, uchrashuvlar misolida ko'rish mumkin. Bangladesh Xalq Respublikasi Qurolli Kuchlari Milliy mudofaa kolleji delegatsiyasining mamlakatimizga tashrifi ham ana shunday maqsadlarga xizmat qildi.

Tadbirda dastlab O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi xodimlari tomonidan yurtimizning bugungi tashqi siyosati hamda Bangladesh bilan ikki tomonlama hamkorlik xususida ma'lumotlar berildi. Shuningdek, O'zbekiston turizm qo'mitasi vakillari keyingi yillarda respublikamizda turizm sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati xususida so'z yuritdi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi mutaxassislari "O'zbekistonda

iqtisodiyot, moliya va sanoatlashtirishni boshqarish" hamda "Bangladesh bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlik" mavzusidagi chiqishlarida qator statistik va infografik ma'lumotlarni taqdim etdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, turizm, shuningdek oliy harbiy ta'lim yo'nalishidagi hamkorlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlarining ko'lami kengayib, samarasi ortayotgani qayd etildi. Yuz yillik tarixga ega O'zbekiston

Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi haqidagi videorolik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Davra suhbatida kelajakda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan istiqbolli rejalar kelishib olindi. Muhokamalarda tomonlar o'zaro manfaatli kelishuv asosida o'quv va ilmiy faoliyatni birgalikda takomillashtirish, malakali professor-o'qituvchilarning onlayn va oflayn shakldagi dars mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan fikr-mulohazalarini o'rtaga tashladi.

Tadbir yakunida mehmonlar uchun akademiya bo'ylab ekskursiya uyushtirilib, ular akademiya muzeyi ekspozitsiyasi va oliy harbiy ta'lim muassasasida kursantlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

– Mazkur akademiyaning milliy armiyangiz safiga bir qator harbiy mutaxassisliklar bo'yicha yetuk, intellektual salohiyati yuqori, har tomonlama chiniquqan ofitser kadrlarni tayyorlab kelayotgani tahsinga sazovor, – deydi aviatsiya vitse marshali Muhammad Kamrul Islom. – Ushbu oliy harbiy ta'lim muassasasidagi sharoitlarni ko'rib, hayratlandim. Bu yerda jahon andozalariga javob beradigan, nazariya va amaliyotni o'zida uyg'unlashtirgan trenajyor va o'quv xonalari menda katta taassurot qoldirdi. Bangladesh harbiy delegatsiyasi ushbu ta'lim maskaniga o'tgan yili ham kelgan. Bu galgi tashrifimiz harbiy ta'lim bo'yicha hamkorligimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
«Vatanparvar»



Urush ko'rgan so'zlar

Hali-hamon o'zbek leksikologiyasida ko'plab harbiy terminlarning o'z o'rnida qo'llanilishi borasida turli bahs-munozaralar tingani yo'q. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan bu so'zlarning muomalaga kirish sur'ati nihoyatda tezlashib ketdiki, shu munosabat bilan o'zbek harbiy terminlari tizimida qurol-aslahalar nomini ifodalovchi o'ziga xos qatlam yuzaga keldi.



Kuni kecha Hamidulla Dadaboyev, Hamid Yodgorov muallifligidagi "O'zbek harbiy terminologiyasi" ilmiy-uslubiy qo'llanmasini mutolaa qilish jarayonida turli nomdagi harbiy terminlarning ruscha va o'zbekcha muqobillari o'zaro taqqoslanganiga guvoh bo'ldim. Ularning ayrimlarini keltirish bahonasida, birinchidan, o'zbek tili uchun hamon ilmiy tahlillarga muhtoj bo'lib turgan harbiy terminlar masalasini keng jamoatchilikka bildirmoqchi bo'lsak, ikkinchidan, butun boshli tarixiy jarayonni aniqroq namoyon etishni maqsad qildik.

Urush yillarida o'qsochar qurolning yangi turlarining qurollanishga kirishi bois ularni ifodalovchi terminlar ham tilimizda o'z

aksini topdi. Xususan, avtomat (*pistolet-pulemyot*) urush yillarida eng ko'p nomi tilga olingan terminlar sirasidandir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, o'zbek harbiy terminologiyasida qurol-yarog' nomlarini ifodalovchi istilohlar turli nomlarda shakllandi. Masalan, qurol-aslaha nomlari aynan, ya'ni ruscha shaklidan o'zlashtirildi: vintovka, pulemyot, avtomat, pistolet, granat(a), bomba, minomyot, snaryad, mina, granatomyot, zenitka, tank va h.k.

Shuningdek, o'zbek tilida mavjud muqobillari bilan ifodalandi: to'pponcha, miltiq, beshotar va h.k.

Bora-bora birikma terminlar o'zbek tili grammatik qoidalariga moslashtirib borildi: stanokli pulemyot, Dektyarev pulemyoti, tankotar granata (*tankka qarshi granata deb ham qo'llanadi*), qo'l granatasi, o'ziyurar to'p, oltiotar minomyot va h.k.

Minomyotlarning turlarini ifoda qiluvchi 51 mm.li rota minomyoti, 82 mm.li batalyon minomyoti, 120 mm.li polk minomyoti, 6 stvolli minomyot (*ba'zan oltiotar minomyot deb ham yuritilgan*) kabilar ham o'zbek harbiy terminologiyasining tarkibiy qismiga aylandi.

Birinchii jahon urushi yillarida aeroplan termini ishlatilgan bo'lsa, keyingi davrlarda u o'z o'rnini samolyot terminiga bo'shatib berdi. Shu bilan birga, kalka yo'li bilan hosil qilingan termin birikmalar lug'atlarimizdan mustahkam o'rin oldi.

Bu davrda snaryad, mina so'zlari o'rnida o'q so'zining ishlatilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

Tankotar to'plardan otilgan o'qlar dushman tanklarini majaqlay boshladi ("Qizil Armiya" gazetasi, 1945, 12-may).

Shu to'rt soat ichida Bryukovning yaqiniga tushib portlagan minomyot o'qlari

uni bir necha marta tuproqqa ko'mdi ("Suvorov natiski" gazetasi, 1945, 4-mart).

O'zbek tili harbiy leksikasi urush yillarida snaryadning quyidagi turlarini ifodalovchi iboralar bilan boyidi:

bronteshar snaryad, radar snaryadi va h.k.

Urushning so'nggi yillaridan e'tiboran atom bombasi, vodorod bombasi, bakteriologik (*biologik*) qurol iborolari ham keng ishlatildi.

O'sha yillardagi manbalarda o'ziyurar to'p, tankotar to'p terminlari o'zi yuradigan to'p, tankka qarshi otadigan to'p shaklida ham qo'llanila boshladi. So'nggi davrlarda esa bu xil terminlarning ixcham variantlarini ishlatish urfga kirdi.

O'zbek tilining urush davridagi harbiy leksikasida qadimdan qo'llanib kelgan ko'plab istilohlar ishlatila boshlandi yoxud muhandislik inshootlarining yangi turlarini ifodalovchi terminlar yuzaga keldi:

okop, voronka, zemlyanka, brustver, yacheyka, transheya, blindaj, ambrazura, baryer, simto'siq, tankka qarshi to'siq, bombapana, uzoq muddatli o't ochish nuqtasi (*DOT – dolgovremennaya ognevaya tochka*), yog'och va tuproqdan qilingan o't ochish nuqtasi (*DZOT – derevyanno-zemlyanaya ognevaya tochka*), o't ochish nuqtasi (*OT – ognevaya tochka*), o't ochish pozitsiyasi (*OP – ognevaya pozitsiya*), kuzatish punkti (*NP – nablyudatel'nyy punkt*), komanda punkti (*KP – komandnyy punkt*), pulemyot nuqtasi (*PT – pulemyotnaya tochka*), minomyot nuqtasi (*MT – minomyotnaya tochka*), minalashtirilgan maydon, mudofaa inshooti shular jumlasidandir.

Ikkinchi jahon urushidan oldin okop, transheya terminlari ma'no jihatdan farq qilmasdan tilimizda faol qo'llanishda bo'lgan xandaq istilohi bilan ifoda qilingan bo'lsa, urush yillaridan boshlab, har ikki termin ma'no nuqtayi nazaridan bir-birlaridan farq qila boshladi:

Masalan: Biz ochiq transheyaga tushib oldik. Qisqa okoplarda ba'zan to'xtalib, bo'y cho'zib borar ekanmiz, dushmanning o'qlari boshimiz ustidan "viz-viz" hushtak chalib o'tardi.

Transheya termini aslida fransuzcha bo'lib, "mudofaa pozitsiyasining barcha o't ochish nuqtalarini birlashtiradigan, ensiz chuqur xandaq, snaryad va bombalardan himoya qiladigan xandaq" ma'nosida o'zbek tiliga Ikkinchi jahon urushidan oldin o'zlashtirilgan.

Mazkur termin hozirgi kunda

ham o'zbek tilining harbiy terminologiyasidan mustahkam o'rin olgan.

1981-yilda nashr etilgan "Ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'ati" va "Russko-uzbekskiy slovar"da zovur terminini transheya istilohining muqobili tarzida qo'llash holatini to'g'ri deyish noto'g'ri.

Transheya, xandaq terminlari sinonimiyasi haqida shunday deyish mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da xandaq terminining "biror narsani asrash, saqlash va shu kabi maqsadda kovlangan chuqurlik, o'ra" kabi asl ma'nosi negadir ikkinchi planga chiqarilgan. Bu lug'at maqolaning "dushman o'ta olmasligi uchun qazilgan katta chuqurlik" ma'nosi esa birinchi planga chiqarilgan. Aslida, xandaq termini arabcha bo'lib, "o'ra" ma'nosini ifodalaydi. Uning harbiy terminologiyada "okop" ma'nosida qo'llanishi maqsadga muvofiq emas.

Ikkinchi jahon urushi yillarida rus tilidan o'zlashgan baryer termini o'zbek tilida g'ov, to'siq muqobillari bilan ifodalangan, hozirgi harbiy terminologiyadan faqat to'siq ma'nosi mustahkam joy olgan.

Urushning so'nggi yillarida atom bombasi termini ishlatilgan bo'lsa, keyingi yillarda atom artilleriyasi, atom urushi, atom suvosti kemasi, atomli raketa, atom energiyali avianos, atom snaryadi, vodorod bomba, vodorod quroli, bakteriologik qurol, qanotli raketa singari terminlar muomalada o'zining mustahkam o'rniga ega bo'ldi.

Xullas, bu kabi urush ko'rgan so'zlar bilan ishlash – har bir tilshunos, chunonchi yurt fuqarosi uchun chinakamiga mehnat va izlanishlarni talab etadi. Bunday tadqiqotlar esa kelgusida shu millatning harbiy tili ravnaqiga mustahkam hissa bo'lib qo'shilishi shubhasiz.



Katta leytenant
Bobur ELMURODOV tayyorladi.

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarida turkiy xalqlarning mardligi va jasoratidan so‘zlovchi jangnoma parchalar anchagina. Bunday she‘rlar adabiyotimiz tarixida rajaz deb ataladi. Asardagi jang tasviriga bag‘ishlangan to‘rtliklar soni 60 ta bo‘lib, ularni o‘z navbatida bir qator ichki guruhlariga ajratish mumkin.

Masalan, **jang tasviri she‘rlari**. Jangnomalardan olingan parchalarda xalq ichidan chiqqan pahlavon yigitlar ulug‘lanib, beqiyos kuch-qudrati ta‘riflanadi. Bu parchalar orqali biz qadimgi turkiylarning jangovar ruhi, jangchining intizomi, qat‘iyati kabi fazilatlari bilan tanishamiz. Bunday she‘rlar jangchilarga ruh bag‘ishlab turgan. Quyida ulardan namunalar keltiramiz:

Jang tasviri, jangga chorlovlar, mard maydon yigitlar jasoratini madh etuvchi she‘rlar...

Jang tasviri. Bunday she‘riy parchalarda jang manzaralari, shiddatli hujum, alplar to‘qnashuvi, qilichbozlik va nayzabozliklar tasvirlanadi. Quyidagi misol “oquštillar”, “baqištillar”, “tuquštillar” so‘zlari bilan qofiyalangan ushbu parcha orqali dastavval, mard yigitlarning jangga chorlovlarini, jangari saflarning bir-birlarini taqozo etib harakatlanishi tasviri beriladi:

*Erän alpı oqıştilar,
Qingır közin/közün baqištillar,
Qamuğ tolmun toquštillar,
Qilič qinqa kücün siğdi.*

Ma‘nosi: yigitlar bir-birlarini chaqirishdi, bir-birlariga qing‘ir ko‘zlari bilan o‘grayib qarashdi. Har xil jang qurollari bilan urushdilar. Qilich yuzlari qon bilan qalinlashib, qinga kuch bilan sig‘di. Ular dushman jangchilariga o‘tkir, g‘azabli nigohlarini qadadilar. Bunda jangchilarning dushmanga munosabati, qahrini ko‘rish mumkin. Bu shunchaki o‘zaro jang emas, ozodlik, vatanparvarlik kurashidir. Chunki she‘rda jangchilar turli xil qurollarda kurashgani aytilmoqda. Ushbu o‘rinda biror yurtga bostirib kelgan yovga nisbatan qarshi chiqqan xalqning qo‘liga ilingan narsa bilan olg‘a borishi tasvirlanmoqda. Jang tasviri ham o‘ta jonli berilgan. Biz buni so‘nggi “Qilichlar qonlanib, qiniga kuch zarbi bilan sig‘di” misrasi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Jangga chorlovlar. “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi jangnoma she‘rlarda yigitlarni jangga chorlovchi hayqiriqlar anchagina. Misol uchun:

*Yağın tara titrü baqıp
bügün bilä,
Oğrap qalı kelsä señä
qarşu sülä.*

Ma‘nosi: dushmaningni diqqat bilan kuzat, bek nayzasin bilagingda tut. Bekka qarshi yov kelsa, unga qarshi jang qil. Parchada beklikni himoya qilish nazarda tutilmoqda. Buning burch ekanligi er kishiga eslatilgan. Yurtga raxna solmoqchi bo‘lgan dushman oddiy bo‘lmasligi, shuning uchun dushmani diqqat bilan kuzatib, unga qarshi jangga shay turish lozimligi uqtirilmoqda. Vatan oldidagi



“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK”DAGI JANGNOMA SHE‘RLAR



burch eslatilib, beklik nayzasini mahkam tutishi, agar bekka qarshi dushman jang qilishni boshlasa, unga qarshi jang bilan javob berish kerakligi aytiladi. Bu mazmundagi she‘rlarda turkiylarga xos bo‘lgan jangovarlik va shiddatkorlik namoyon bo‘lgan.

Parchadan *ma‘lum bo‘ladiki, yurt mustaqilligini avaylab-asrash, tashqi dushmanlarga qarshi kurashish nafaqat* hozirgi davr, balki qadimdan turkiy xalqlar milliy ruhining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib kelgan.

Mard yigitlar jasoratini madh etuvchi she‘rlar o‘zining badiiyligi, mardonavor ruhi bilan ajralib turadi. Misol uchun:

*Alp eränni uđırdım,
Boynın anıñ qađırdım,
Altun, kümüş yüđürdim,
Süsi qalın kim ötar.*

Ma‘nosi: jangni ta‘riflaydi: dushman askarlarini ajratib, to‘zitib yubordim, bo‘yinlarini egdirdim, oltin-kumushlarini ortib yukladim, odam o‘tolmas darajada askari qalin edi. To‘rtlikda alp yigitning dushman askarlariga qarshi qilgan **jangi g‘alabasi** haqida so‘z boradi.

Aytadi: “Dushman askarlarini to‘zitdim, ajratdim. Jamoaning botirlarini bosh egdirdim”.

Mana shu o‘rinda o‘ljalar haqida aytadi: “Oltin-u kumushlarini ortib yukladim”. Botir *dushman askarlarining ko‘pligi va saflari qalinligini aytish orqali o‘z qudratini namoyon etadi.*

Jang o‘g‘itlari. Shiddatli janglarda g‘olib chiqish uchun albatta, puxta tayyorgarlik va to‘g‘ri siyosat lozim bo‘ladi. Shuning uchun turkiy xalqlarda jang maydoniga tushishdan avval mashvarat, kengashlar o‘tkazilgan. Misol uchun:

*Meniñ bilä keñäşdi,
Bilgi meñä teñäşdi.
Erän bilä söñüşdi,
Alplar başın ol uuvır.*

Ma‘nosi: jang haqida suhbat qilgan bir kishi to‘g‘risida aytadi: Men bilan kengashdi, (*bu haqda*) uning fikri mening fikrimga mos keldi. Jangda erlarni uzoqlarga uloqtirdi. Botirlarning boshlarini koptok singari dumalatdi.

Ushbu to‘rtlikdan turkiy xalqlarning jangovar ruhining emas, kengashuvchanlik va tadbirli jang qilish salohiyati, fikrlarining mushtarakligini ham ko‘rishimiz mumkin. Bundan bizga jangda jismoniy kuch emas, avvalo, to‘g‘ri qaror qabul qilish va tadbir-majlisli bo‘lish, shunga muvofiq ish ko‘rish nihoyatda muhim ekanligi ibratdir. So‘nggi ikki misra orqali ko‘z o‘ngimizga turk pahlavonlarining jangovar qudrati va shon-shuhrati keladi. O‘tmishdan turkiy askarlar o‘ziga xos tayyorgarlikka ega tajribali, o‘z turkiy dunyosi uchun kurashuvchi kishilar bo‘lishgan.

Tangut va Qatunsini o‘rtasidagi jang tasviri ifodalangan she‘rlarda ikki qabila o‘rtasidagi jang tasviri berilgan. I. V. Stebleva o‘zining “Тюркская поэтика. Этапы развития VIII–XX вв.” nomli kitobida Tangut va Qatunsini o‘rtasidagi jang to‘g‘risida aytib o‘tadi.

Yana olima o‘z fikrini to‘liq isbotlash uchun Qatunsini so‘zi bilan boshlanuvchi quyidagi parchani misol qilib keltiradi:

*Qatunsini çoğiladi,
Täñüt begin yağıladı.
Qanı aqın zağıladı,
Boyın suwın qızıl sağıdı.*

Ma‘nosi: Qatunsini xalqi baqirib, bo‘kirib, tangut xalqi va ularning begi bilan yovlashdi, hattoki qonlari suv sharillagandek, sharillab oqdi. Bo‘yinlar qizil suv bilan, ya‘ni qon bilan sog‘ildi.

Yuqoridagi parcha orqali ohangdorlik va jangovar ruhdagi, kurashuvchanlikka chaqiruvchi misralar yoki qofiya so‘zlari jang she‘rlarining asosiy xususiyati bo‘lganini ko‘ramiz. Chunki bunda o‘quvchi o‘zining ong-shuuri bilan bu holatni his etishi talab etiladi. Berilayotgan tasvirdan ikki qo‘shni shahar aholisining jangini, urushning qanchalar talafotli yakunlanganligini, har birining o‘z beklari shu jangga

boshlaganini bilib olishimiz mumkin. Jang tasvirini berishda esa “çoğıladı”, “uağıladı”, “zağıladı”, “sağıdı” kabi so‘zlar bo‘yoqdorlik ifoda etganligini kuzatamiz. Bunday she‘rlar qaysidir ma‘noda bilim beradi. Chunki jang tasviriga bag‘ishlangan she‘rlardan qadimgi turkiy xalqlarning yashagan shaharlari, qishloqlari, ularning qo‘ni-qo‘shnilari haqidagi ma‘lumotlarni bilib olamiz.

G‘ayridinlar bilan bo‘lgan jang tasvirlari. Bunday parchalarda g‘ayridinlar ustiga qilingan yurishlar tilga olinadi. Uyg‘ur, yabog‘-u va boshqa qabilalar shular jumlasidandir.

*Keldi meñä tat,
Ayđım emdi yat,
Quşqa bolup et,
Seni tilär us, böri.*

Mening oldimga bir tot, ya‘ni bir uyg‘ur kofiri keldi. Seni yirtqichlar, bo‘rilar parchalasin, qushlarga yem bo‘l, dedim”. G‘ayridinlar bilan bo‘lgan kurashlar ichida asir tushganlarga qarata aytilgan hayqiriqlar ham uchraydi:

*Körüp neçüg qačmadıñ?
Yamar suwın kečmadıñ?
Tawarıñni sačmadıñ?
Yesün seni a:r böri.*

Ma‘nosi: yengib asir qilinganga qarata aytadi: Nega meni ko‘rish bilanoq qochmading, nega Yamar suvini kechmading, nega boshingni qutqarish uchun mollaringni tashlab keta qolmading? Mana endi o‘ldirilding. Endi seni sirtlon yesin.

Yana bir o‘rinda g‘ayridinlar bilan jang qilishga qarata aytilgan hayqiriq beriladi:

*Tünlä bilä köčälim,
Yamar suwın kečälim,
Teräñük suwın içälim,
Yuwğa yağı uwulsun.*

Ma‘nosi: kechasi bilan ko‘chaylik. Yamar suvini kechaylik. Qaynab chiqayotgan suvini ichaylik. Bizga itoat qilmaydigan dushman parcha-parcha bo‘lsin.

Mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan faxriyalarning dastlabki ko‘rinishi ham shu guruh she‘rlaridan joy olgan:

*Aniñ işiñ kečürdüm,
Eşin yemä qačurdum,
Ölüm otın içürdüm,
İçti bolub yüzi türün.*

Ma‘nosi: uning ishini bitirdim, hamrohini ham qochirdim. O‘lim og‘usini ichirdim, yuzini burishtirgan holda ichdi.

“Devonu lug‘ati-t-turk”dagi she‘rlar mavzu ko‘lami jihatidan rang-barangdir. Shu yo‘sin jang she‘rlari alohida o‘ringa ega. Ularning mavzu qamrovi va badiiy o‘zgachaligi e‘tiborli. Yuqoridagilarni inobatga olib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi jangnoma she‘rlar mavzu qamroviga ko‘ra, tasvirning berilishi va jonli keltirilishi bilan e‘tiborlidir. Chunki bunday badiiy-she‘riy usullar ilk bor asarda berib o‘tilgan.

– Asardagi jang she‘rlari o‘zining pafosi, tasvirning jonli berilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Jangnoma she‘rlarda asosiy e‘tibor mamlakatni dushmanlar qo‘liga o‘tib ketishidan avaylab-asrash, yurt tinchligi uchun pahlavonlarni hushyorlikka chorlovchi she‘riy parchalar beriladiki, bu mavzu hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

“Devonu lug‘ati-t-turk”dagi jang she‘rlarida biz qadimgi turkiylarning jangovarlik mashg‘ulotlari, jangchining intizomi, qat‘iyati kabi fazilatlarni ko‘ramiz. Jangnoma ruhidagi she‘rlar jangchilarga ruh bag‘ishlab turgan bo‘lsa ham ajab emas.

– Jangnoma she‘rlarda Vatan sarhadlarini qo‘riqlash, yurt mustaqilligi uchun kurashish, tashqi xatarlarga doimo sergak turish kabi masalalar tilga olinadi. Bu esa hozirgi kunning asosiy masalalaridan biridir. Shundan kelib chiqib, qadimgi turkiylar badiiy tafakkurining yuqoriligi, uzoqni ko‘ra bilishini qayd etish joiz. Hamma davr uchun dolzarb mavzularni tanlay olish turkiylarga xos **bo‘lgan xususiyatdir.**

**Gavhar RAHMATOVA,
tadqiqotchi**



“MEN O‘ZIMNI O‘YLAMAYMAN, ENDI MUSTAQIL ODAMMAN”

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti bo‘stoni benihoya rang-barang. Unda har gulning o‘z ifori, o‘zigagina xos go‘zalligi bor. Bir-birini takrorlamaydi. Ana shu bo‘stonda yozuvchi Shahodat Isaxonova ko‘ngillarimizga ko‘zgu tutgandek alohida ajralib turadi. Uning “Ona”, “Ilinj”, “Muhabbatning tug‘ilishi”, “Antiq ziyofat”, “Sirli tilak”, “Intiqom” kabi asarlari allaqachonlar o‘quvchilarning ko‘ngil xazinasidan joy olgan. Adibaning qahramonlari ham begona emas, atrofimizdagi odamlar, siz-u, bizmiz, aslida.

Uning tarixiy asarlari ham adabiyot ixlosmandlari tomonidan qizg‘in qarshilandi. Ijodkorlarni jinslarga bo‘lish ma‘qul ish emas. Shunday bo‘lsa-da, ayollarimizning qalami bir boshqacha, nigohlarining qamrovi kengligi, qalb tubiga qadar kirib borishini ta‘kidlash lozim.

Boburiylar tarixi haqida qator ilmiy asarlar bitilgan. Biroq ular orasida temuriy malika, muarrix Gulbadanbegim qalamiga mansub asarni tadqiqotchilar alohida e‘tirof etadilar. Tarixiy voqealarning rost bayoni, ayollarga xos sinchkovlik, saroy xonimlari, an‘analari, shohona to‘ylar, hadyalar, g‘animatlardan ajratiladigan ulushlar, maqomlar, taxt talashuvlari – bular hamma tarixiy manbalarda ham uchrayvermaydi.

Adiba Shahodat Isaxonova asarlarida ham ana shu noziklik, nuqtadonlik aks etib turadi.

Uning hikoyalari haqida gapirmoqchi edim. Qaysi biridan boshlasam ekan? “Katta “A”, kichik “a” ni o‘qiganmisiz? Mayli, bu haqda quyiyoqda yozarmiz. Hozir “Tosh nok”ka to‘xtalamiz.

Bu hikoyani ilgari o‘qimagan ekanman. Yaqinroqda o‘qidim. O‘qidim-u, bir muddat o‘z-o‘zim bilan ovora bo‘lib qoldim. Tanish tuyg‘ular, juda tanish manzaralar...

...Qurbon bayrami arafasida tug‘ilgan qishlog‘imga ziyoratga bordim. Bu yerda qarindoshlarim, jon-jigarlarim yashaydi. Ota-onam o‘tib ketdilar. Shundan keyin sekin-sekin yo‘qlovlarim kamaydi. Toshkent bilan Qashqadaryo orasi uzoq. Qiziq, shu uzoqlik avval ham, ya‘ni ota-onam hayot kezlari ham bilinar edimi?! Sezmagan ekanman, o‘yimga ham kelmagan ekan.

Avvallari uch oyda, keyin olti oy, bir yil, bora-bora yillar orasi ham uzaydi. Har burchida bir xotira yashayotgan bu hovlidan tobora uzoqlashyapman. Begonalashyapman. Ulkan olma daraxtlari, ariq yoqasidagi bir juft tol, nimpushti atirgullar, ko‘ksulton, onam har doim pilla mavsumida kallaklashdan kurashib omon olib qoladigan qari tut, chillaki, husayni, charosdan iborat qator sersoya ishkomi... qadrdonlarim endi yo‘q. Ota-onamdan keyin birin-sirin yo‘qlikka yuz tutdi. Hatto eski paxsa devordan ham voz kechildi. Nima ham deysiz, eski hovlining sohiblari yangi, ularning o‘z tutumlari bor, o‘zlariga ma‘qul tutumlari. Chimrilsalar bormi, o‘z-o‘zidan qadamlaring tiyilib qoladi.

Bir avlod almashganini o‘sha o‘tgan Qurbon bayramida his qildim. Ota hovlimizga asr bilan shom o‘rtasida kirib bordim. Yo‘l horitgan bo‘lsa-da, negadir keng hovliga sig‘madim, men istagan odamlarning yo‘qligidan yuragim ezildi. Ko‘chaga chiqdim. Qarshimdagi uy bekasi Xursand xola, hamsoyamiz, go‘ri nurga to‘lgur Momoxol xola, ularning yonidagi uydan sasi eshitilib

turadigan tojik xola (*rahmatli shaharlik bo‘lganlari uchun tojik deyishar edi*), amakim, ularning ayoli, Sanobar yangam, tog‘alarim, xola, momom, buvam... Hech biri yo‘q. Hammasining uyi bir ko‘chada edi. Ko‘cha to‘la yosh-yalang, odamlar, sen istagan, seni istagan odamlar yo‘q.

Shahodat Isaxonovaning “Tosh nok”i shularni yodimga soldi. Sizga ham ilingim keldi. Dunyoda ota hovlidan ko‘ra aziz, qadrlil yana bir maskan borligini bilmayman. Yer sharining eng go‘zal o‘lkalarida yashab turib ham o‘sha, olislarda qolgan paxsali, “tosh nok”li uylar sog‘inchi bilan yashayotgan insonlar borligiga ishonaman.

O‘qiyimiz: “Arpa qishloqlik Kenja traktorchining hovlisida bir nok borki, o‘tganning ham, qaytganning ham havasi keladi. Uni ilk bahorda, gulga kirgan payt ko‘rgan odamning ko‘zi quvnaydi. Qishloqdagi hamma noklar oq, sarg‘ish, qizg‘ish bo‘lib gullasa, u bir xilda, pushti rangda ochiladi. Arilarning g‘ujligidan nokning gullari qoramtir pushti, mallarang pushti tovlanadi.

Qishloqdagilarning ko‘pchiligi katta ko‘cha qolib, mana shu yolg‘izoyoq yo‘ldan o‘tadi. Hatto oy kelinlar orasida, mana shu nokning hidiga boshqorong‘i bo‘lganlar bor emish”.

Har yili nok uzladigan pallada shu hovlidan uchirma bo‘lgan uch opa-singil nok bahona, diydor g‘animat bilib, ota hovlida diydorlashadilar. Uch viloyatdan keladigan uch opa-singilning bu yerda ham yo‘qlovchilari ko‘p, dugonalar, ona qadrdonlari, hamsoyalar.

Yana o‘qiyimiz: “Kenja onasining aytganini qilib, uch-to‘rt yil hamma mevalardan opalarining haqini ajratib, yo‘qlab turdi. Keyin opalarining o‘zlari qo‘ymadi, “Ukajon, o‘zimizda hamma mevalardan bor, bitta tosh nok yo‘q, shundan ulush bersang bo‘ldi. Faqat uni olgani o‘zimiz boramiz va shu bahonada ota uyimizni ziyorat qilamiz, bir-birlarimiz bilan diydorlashamiz”, deb”.

Ammo bu bir kishiga yoqmaydi, opa-singillar malikai Turandot deydigan kelinga, ya‘ni Kenjaning xotiniga. Va u juda yomon bir ishga ahd qildi.

O‘qiyimiz: “Turdi usta og‘zidan yomon so‘z chiqib ketmasligi uchun gapining davomini yutdi, o‘rnidan shart turdi... Hovlining o‘rtasida turib olganicha, qo‘llarini sermab, shattalik qilayotgan Kenjaning xotiniga o‘qraydi:

– Uyat ham yaxshi gap! Shu bechoralar bir yilda bir marta kelib, to‘rt kun turganiga shuncha to‘polon qilyapsanmi? Yoki egachilaring iringangga faqat mana shu nokning mevasini bo‘lishib olish uchun kelishadi deb o‘ylayapsanmi? Unda xato qilasan! Bu yerlar ularning o‘z uyi – o‘lan to‘shagi! Bu yerlarda ularning bolaligi, eng baxtli kunlari qolgan! Ota-onasidan yodgor mana shu daraxtlar ham xuddi ering kabi egachilaringga jigar! Ular ana shu daraxtlar bilan xuddi aka-singillarday birga o‘shishgan!”

Ammo bu gaplar kelinga kor qilmadi. Yomon ishini baribir qildi,

oqibati ham uzoq kuttirmadi. Nima bo‘lganini aziz o‘quvchilarning o‘zlari o‘qib bilib oladilar va kerakli xulosani chiqaradilar deb umid qilamiz.

“Katta “A”, kichik “a” hikoyasining sarlavhasiyoq kishini o‘ziga tortadi. Nomini o‘qiganimdayoq bu mitti bir inson haqida bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan edim, yanglishmagan ekanman.

Aziz o‘quvchi, siz, ba‘zan kichikintoylar ham kattalarga saboq berishini, jajji insonlarda ham olamning yaxshiliklari siqqan katta yurak borligini ko‘rganmisiz, his qilganmisiz?

Sayrga yetaklab chiqqan nabirangiz ko‘ringan odamga salom berib, “Siz nega salom bermayapsiz?” deb sizni o‘sal qilsa, bu saboq emasmi?!

Kasalxona hovlisida chorasizlikdan ko‘zyoshlarning ixtiyorsiz erk berganida, qayerdandir paydo bo‘lgan mitti odamcha jajji qo‘llari bilan yuzingdagi ko‘zyoshlarni sidirsa... shafqat to‘la kaaatta yurakni his qilmaslik mumkinmi?!

Bilasizmi, ayrim voqealarni, hikoyalarni birovga aytib berib bo‘lmaydi. Yo‘q, aslida hamma narsani gapirib berish mumkin. Shunchaki ba‘zi hikoyalarni eshitgandan ko‘ra o‘qigan afzal-da. Tuyg‘ularni yurakdan kechirasiz, hikoya qahramoni o‘zingizdek hislar uyg‘onadi. Kitob o‘qishning qiymati ham shunda, qalb tozaradi!

Yozuvchi Shahodat Isaxonovaning bu hikoyasi haqida ortiqcha gapirish niyatim yo‘q. Adibaning hikoyalarni topib o‘qish qiyin emas. Istayangiz, an‘anaviy kitobxonlikni tanlang, istasangiz, onlayn tanlang. Ammo an‘anaviy kitobxonlikka nima yetsin!

So‘zimizni shu yerda “Katta “A”, kichik “a” dan parcha bilan yakunlaymiz.

O‘qiyimiz: “– Oyposh xola, – dedi u dumaloq ko‘zlari qisilinqirab, yuzi jiddylashib, – men... men xat yozib beraymi, sizga?

Kampirning serajin yuzi battar tirishdi:

– Qanaqa xat, chirog‘im?

– Haligi... o‘g‘lingizga! Buvim aytganlar, “Savodim bo‘lganda yaxshilab bir xat yozardim”, deb. Mening esa savodim bor. Mana... – u shosha-pisha yelkasidan sumkasini oldi-da, ichini titkilab, ko‘k daftar chiqardi, – mana, qarang, bu katta “A2, bu kichkina “a”! – sevinish o‘rniga Oyposh xolasining ko‘zlari birdan g‘amginlashib, kirtayib qolganini ko‘rib, hayron bo‘ldi.

“Yo ishonmayaptimikan?”

– Oyposh xola, rost aytyapman, mana ko‘rasiz, bir oydan keyin hamma harflarni bilib olaman, – dedi shoshib, azbaroyi kuyib-pishganidan yuzi qizarib, bo‘g‘riqib ketdi. – Keyin siz aytib turasiz, men yozaman. Hammasini yozaman. Keyin o‘g‘lingiz qaytib keladi. Shunaqa! Men o‘zimni o‘ylamayman, men endi mustaqil odamman. Muallima opamiz aytdilar. “Endi sizlar mustaqil odamsizlar, o‘zlaringizdan kattalarga yordam berishlaringiz kerak”, dedilar, bidingizmi?”

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
«Vatanparvar»

ILG'OR PSIXOLOGLAR SARALANDI

Markaziy harbiy okrug Ma'naviyat va ma'rifat markazida Mudofaa vazirligi miqyosida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Eng ilg'or harbiy psixolog" ko'rik-tanlovining harbiy okrug bosqichi o'tkazildi.



Unda harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini psixologik reabilitatsiya qilish va harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini ko'tarishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish borasida samarali xizmat faoliyatini olib borayotgan 6 nafar harbiy psixolog bellashildi.

Mudofaa vazirligi ijtimoiy-psixologik bo'limi ofitserlari hamda Samarqand davlat universiteti psixologiya fakultetining professor-o'qituvchilaridan iborat hakamlar hay'ati ishtirokchilarning xizmat faoliyati va taqdimoti, blits-savollar hamda soha yo'nalishi bo'yicha tuzilgan psixologik test sinovlari orqali g'oliblarni aniqladi.

Shuningdek, soha vakillarining qo'shinlarda amalga oshirayotgan ijtimoiy-psixologik tadbirlarini sifat jihatidan takomillashtirish hamda ilg'or tajribalarni ommalashtirayotganiga alohida e'tibor qaratildi.

Yakunda g'olib va sovrindorlarga harbiy okrug qo'mondonligining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug "Termiz" umumqo'shin dala-o'quv maydonida "Eng ilg'or harbiy psixolog" ko'rik-tanlovining harbiy okrug bosqichi o'tkazildi.

Harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda faoliyat olib borayotgan harbiy psixologlar orasidan chuqur kasbiy bilim va yutuqlar, ijodiy salohiyat, yuksak intellektual qobiliyat, axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan eng malakali harbiy psixologlarni aniqlash hamda o'zaro hamkorlik va sog'lom raqobat muhitini yaratish tanlovdan ko'zlangan asosiy maqsad etib belgilandi.

Tanlovda harbiy qism va muassasalarda ijtimoiy-psixologik ishlarni tashkil etishda zarur bo'lgan moddiy-texnik bazasi, harbiy psixologlar ishlab chiqqan ijodiy, psixologik test va metodikalar, o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlari asosida eng ilg'or harbiy psixologlar aniqlandi. Dastlabki shartda harbiy qismda harbiy psixolog uchun alohida "Ruhiiy zo'riqishlarni yechish" xonasi yaratilgani ko'zdan kechirilgan bo'lsa, navbatdagi shartda harbiy psixologlarning bir kunlik xizmat faoliyati yoritildi. 3-shartda ishtirokchilar ijtimoiy-psixologik ishlar yuzasidan tuzilgan test savollariga javob qaytardi. Oxirgi shartda esa bilet savollariga javob berdilar.

"Men g'olib" shiori ostida sog'lom raqobat asosida, ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilgan bellashuvda ishtirokchilarning kasbiy bilim va malakasi odilona baholab borildi. Jumladan, Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi O'tkir Jo'rayev, harbiy okrug tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar boshqarmasi boshlig'ining yordamchisi – harbiy psixolog katta leytenant Anvar Qulsaxatov, Termiz shahri qo'riqlash bo'limining psixologik ta'minlash guruhi katta psixologi katta leytenant Adham Xo'jayev, O'zbekiston Respublikasi advokatlar palatasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, malaka komissiyasi mas'ul xodimi, psixolog Feruza Mallayevadan iborat hakamlar hay'ati tanlov



mezonlariga muvofiq, baholashga ochiq va xolisona yondashdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Nuriston garnizonidagi harbiy qism harbiy psixologi katta leytenant Azamat Majidov uchinchi, Xayrobod garnizonidagi harbiy qism harbiy psixologi katta leytenant Jahongir Musayev ikkinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Buxoro garnizonidagi harbiy qism harbiy psixologi leytenant Baxtiyor Melixonov 1-o'rinni egallab, tanlovning yakuniy bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

III darajali serjant Akbar AHMEDOV

HARBIY OILALAR BANDLIGI TA'MINLANMOQDA

Farg'ona garnizoni Ma'naviyat va ma'rifat markazida harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi o'tkazildi.



Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, Farg'ona harbiy prokuraturasi hamda Farg'ona viloyati bandlik bosh boshqarmasi, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, shuningdek, boshqa qator tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan yarmarkada Farg'ona garnizonidagi harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatni o'tab kelayotgan harbiy xizmatchilarning ish bilan band bo'lmagan 100 nafardan ortiq oila a'zosi ishtirok etdi.

Mazkur mehnat yarmarkasida viloyatning 10 dan ortiq tashkilot, muassasa va korxonalari o'zlarining 100 dan ortiq bo'sh ish o'rni bilan qatnashdi. Unda ish bilan band bo'lmagan harbiy oilalarning 10 nafardan ortig'iga mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha ishga joylashish uchun yo'llanmalar berildi.

Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi harbiy qismlarda "Armiya – vatanparvarlik va jasorat maktabi" shiori ostida "Jasorat maktabi" o'quv yig'inlarini o'tkazish ezgu an'anaga aylandi.

"JASORAT MAKTABI" YIG'INI

Angren garnizonida ushbu yig'inning uchinchi mavsumi boshlandi. Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi, Toshkent harbiy-ma'muriy sektori va qator tashkilotlar hamkorligida tashkil



etilgan navbatdagi yig'inga Toshkent viloyatining turli hududlaridagi mahalla yoshlari jalb etildi.

Mavsumning ochilish marosimida so'zga chiqqanlar mazkur yig'in yoshlar uchun kutilmagan imkoniyatlar eshigini ochishini alohida ta'kidladi. Ushbu tadbir yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Vatanga sadoqat tuyg'usini mustahkamlash hamda kelajak avlodni har tomonlama yetuk etib voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati



ODAMLARGA DOIM QAHRAMON KERAK. O'ZBEK KINOSIGA-CHI?

Ukam "Feysbuk" da har safar inglizlarning sehrgar Merlin obrazidan foydalanadi. Ko'pincha suratlarini ilova qiladi. "Nega aynan Merlin?" deb so'radim. "Merlinning aqli va muammoga yechim topishga ustaligi yoqadi" deb javob berdi u. Serialni qayta-qayta ko'rgan ukam Merlinning har bir harakatidan zavq olar, uning sehrgarligiga emas, qahramonligiga oshiq edi.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda fikr aytish, turli foto, video yuklash, har xil bachkanaliklar bilan ommaning e'tiborida bo'lish urfga aylandi. Yoshlarimiz bu borada ancha faol. Ular mashhurlarga – film qahramonlari, futbolchilar, milliardlar san'atkorlar va boshqa kishilarga taqlid qiladi, shulardan iqtiboslar keltiradi. Ularning suratini virtual olamga joylab boradi.

Afsuski, ijtimoiy tarmoqda Beruniy yo Forobiy asarlaridan iqtibos keltiradigan, ilmiy qarashlarini muhokama qiladigan yoshlar juda oz. Nega? Do'ppini boshdan olib, o'ylab ko'rsak, ko'p yillar buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodini yoshlarga yetarli tanitish o'rniga, faqat qulog'iga ularning nomini quyish bilan ovora bo'ldik. Yana ota-bobomizni tanimaydi, bilmaydi deb o'pkalaymiz. Millat o'z qahramonlarini tanimas ekan, hech qachon qudratli bo'lolmaydi. Odamlarga doim qahramon kerak. "Haqiqiy qahramonlik qo'lda emas, miya va yurakda", degan edi amerikalik adib German Melvill. Bugun milliy tafakkurni uyg'otish, turli "...parastlik" sindromlaridan xalos bo'lish uchun tariximizning yorqin sahifalarini jamiyatga yuqtirish ehtiyoji bor. Buyuk allomalar, mumtoz shoirlar, dovyurak sarkarda-yu ma'rifatli hukmdorlarimizni xalqqa qayta tanitish ziyolilar zimmasidagi ma'naviy burch.

Zamonaviy kinoijodkorlar bir zamonlar qabila sardori bo'lgan, nasl-nasabining tayini yo'q kimsani ham qahramonga aylantirib yubora oladi. Tabiiyki, bu qahramon najotkor, qudrat sohibi o'laroq millionlab o'smirlarning ko'nglidagi joy oladi. Jahon kino san'ati ilm-u tafakkur namoyandalari ham unutgan emas. "Google" dasturida biror tarixiy shaxsni qidirsangiz, hech qursa, u haqida bitta kinoasar bor. Afsuski, biz – o'zbeklar bu borada maqtana olmaymiz.

Buyuk ajdodlarimiz haqida o'tgan yigirmanchi asrda romanlar yozilib, filmlar ishlandi, spektakllar yaratildi. Biroq tarixiy-biografik janrdagi bu asarlar egizday bir-biriga o'xshash. Davr va ijtimoiy muhit o'xshashligi tabiiy. Ammo har bir ajdodimizning o'z taqdiri, ijod yo'li, g'oyasi va albatta xarakteri bo'lgan. Hozir bir qolipdagi zo'rma-zo'raki, badiiy talqini bitta o'zanga qamalgan, bir-birini takrorlaydigan qahramonlar yaratish urfdan qolgan.

Deylik, yoshlarimiz Alisher Navoiyni qanday tasavvur qiladi? Ko'pchilikning ko'z oldida avvalo, hassa tutgan, soch-soqoli oqargan, munkillab qolgan sallali chol qiyofasi gavdalanadi. Vaholanki, Navoiy bobomiz vafot etganda oltmish, "Xamsa"ni yozganda qirq yoshda edi. Bir o'zbek o'g'loni sifatida Navoiyni munkillagan chol emas, ham jismonan, ham ma'nan baquvvat, ruhan tetik, g'ayratli shaxs bo'lgan deb tasavvur etishga urinaman. Ne ajabki, har safar nuroniy chol siymosi xayolimda gavdalanaveradi.

Shu kungacha o'zbek adabiyotida, kinosida yaratilgan asarlarni yo'qqa chiqarish adolatsizlik bo'ladi, albatta. O'tgan asrda "Alisher Navoiy", "Abu Rayhon Beruniy", "Ulug'bek yulduzi", "Abu Ali ibn Sino", "Buyuk Amir Temur", yaqin yillarda "Ibrat", "Avloniy", "Qo'qon shamoli", "Imom Abu Iso Termiziy" kabi tarixiy mavzudagi qator filmlar yaratildi. Turk ijodkorlari bilan hamkorlikda "Mendirman Jaloliddin" seriali suratga olindi. Lekin negadir bu filmlar kutilganidek samara bergani yo'q.

Adabiyot inson qalbini ifoda etsa ham, odamzod ko'rganiga ko'proq ishonadi. Kinolar asosida esa baribir adabiyot yotadi. Tarixiy filmlar albatta badiiy poydevori baquvvat asarga asoslanishi lozim. Ajdodlarimizning tarjimaiy holini bitta formulaga solib, asardan asarga ko'chirish bilan maqsadga erishish qiyin. Birxillikdan qochish, tasavvurimizni bir sidra tozalab olish, ajdodlarimiz bilan oramizni yaqinlashtirish hozirgi o'zbek adabiyoti va kinosining muhim vazifasi deb o'ylayman.

Haqiqiy vatanparvarlik qasidasi o'laroq tilga olinadigan Mel Gibsonning "Sheryurak" badiiy filmini hammamiz yaxshi bilamiz. Shotlandiya va Angliya o'rtasidagi urushlarda afsonaga aylangan Uilyam Uollesning hayotidan ta'sirlanib suratga olingan mazkur filmda ko'p epizodlar to'qima bo'lsa ham, shotland o'g'lonlarining urushdagi matonati, vatanparvarligi va jasorati hanuzgacha millionlab qalblarni to'liqlantirib keladi. Mazkur film XV asrda Blaynd Harry degan so'qir shoirning Uolles haqida yozgan dostoni asosida yaratilgan. Film ijodkorlari esa bitta personajni butun dunyoga vatanparvarlik timsoli sifatida taqdim eta bildi. Nima, bizning tariximizda Uolleslar yashamaganmi? O'tmishimizning har bir sahifasida bir emas, ikki emas, o'nlab Uolleslar bor-ku! Shunday ekan, nega Spitamen yoki To'maris hayotini tomoshabinga professional darajada ko'rsata olmaymiz?

O'n besh yilcha ilgari teleekranlarimiz koreys tarixiy seriallari bilan to'lib-toshgan edi. Oqibatda bolalarimiz koreys qahramonlari bo'lishni orzu qila boshladi. O'quvchilar Shiroq, To'maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi buyuk vatanparvarlarimiz haqida faqat darsliklarda o'qishi yetarli emas.

Dunyoda motivlar tugamagan, lekin syujet va g'oya taqchilligi bor. Shunga qaramay, yaqin yigirma yilda qanchadan-qancha qahramonlar o'ylab topilmadi deysiz? O'rgimchak odam, Chumoli odam, Ko'rshapalak odam (*Betmen*), Terminator, Temir odam... Sanayversak, ro'yxatning adog'i yo'q. Eng qizig'i, ular o'ylab topilgan, bor-yo'g'i fantaziya mahsuli xolos. Bizning tariximiz va folklorimiz esa Gollivudni yigirma-o'ttiz yil tarixiy qahramon bilan ta'minlashga yetib ortadi.

Yozuvchi tarixiy qahramonning hayoti va faoliyatini aks ettirmoqchi ekan, eng avvalo, individual mahoratga tayanadi. Uzoq asrlar sukunat ichra yotgan qo'lyozmalar bilan suhbatlashadi, tarix qabristonidagi toshbitiklarni xolis o'qiydi. Badiiyat ila tarixni hikoya qilish san'ati esa oson emas. Badiiy asarning g'oyasi – ildizi baquvvat bo'lishi kerak. G'oyasi bo'sh asarning na badiiy qiymati, na estetik zavqi bo'ladi. Tarixiy qahramonning g'oyasi muhim! Biror katta g'oya bilan bugungi odamlarning qalbiga ta'sir ko'rsatishi shart. Rus yozuvchisi Sigizmund Krjjanovskiyning bir gap bor: "Vatan tarixini yozishingiz uchun ikkita narsa bo'lishi kerak: ham Vatan, ham tarix. O'tmishingizni sevishingiz, qadimgi zamonning eng yomon faktlaridan ham yaxshilik izlashni o'rganishingiz lozim. Tarix haqida badiiy asar yozishdan oldin mamlakatingiz tarixini bilishingiz, to'liq material to'plashingiz va shundan

keyingina tarixiy asarda ketma-ket bo'lib o'tadigan voqealarni ko'rib chiqishingiz mumkin".

Jahon adabiyotida buyuk shaxslarga bag'ishlangan biografik asarlar talaygina. Oddiy misol: Shekspir hayotiga bag'ishlangan o'ndan ortiq roman bor. Italian xalqining buyuk shoiri Dante Aligeri haqida beshta roman yozilgan. Bu asarlarda Shekspir va Dante shaxsi turlicha talqin qilingan. Mazkur asarlar asosida bir nechta badiiy film ishlangan. Masalan, Uilyam Shekspir haqida o'n uchta kino suratga olingan bo'lib, ularda adibning butun umri tasvirlanmagan, hayotining muayyan bir davri badiiy tahlil etilgan. Film ijodkorlarining maqsadi Shekspir yoki Dantening hayoti haqida hikoya qilib berish emas, ularning g'oyalarini jamiyatga yetkazish bo'lgan. O'zbek adabiyotida esa tarixiy obrazlar ko'pincha nuqsondan xoli qilib tasvirlanadi. Muallif asarda qahramonini to'la himoyaga olib, biror xato qilishiga izn bermaydi.

Bolaligimda rus yozuvchisi Klara Moiseyevaning Abu Rayhon Beruniy haqidagi "Beruniy yulduzlari" qissasini o'qigandim. Asar bobomizning falakiyot ilmi bilan bog'liq faoliyati, Ma'mun akademiyasidagi muhit haqida tasavvur beradi. Qizig'i, asar bosh qahramoni Beruniy emas, balki Yoqub ismli shogirdi edi. Bu yondashuv ham muallifning o'ziga xos talqini desak xato bo'lmaydi.

Robin Gud haqida bilmagan odam yo'q hisobi. Boylarning mulkini o'marib, kambag'allarga ulashadigan bu to'qima qahramonning o'zimizda ham muqobili bor – Namoz Pirimqul o'g'li. Xudoyberdi To'xtaboyev u haqida "Qasoskorning oltin boshi" romanini yozgan. Lekin bu asar asosida film ishlanmagan. Hatto yaxshiroq targ'ib ham qilinmagan. Aslida bunday asarlar yuz minglab nusxada chop etilishi, barcha maktablarga tarqatilishi, jamoatchilik orasida ko'proq muhokama qilinishi zarur.

Bugun har bir ziyoli millat tafakkurining o'sishi uchun qayg'urishi – davr talabi. Buyuk ajdodlarimizning g'oyalarini jamiyatga singdirish – zimmamizdagi burch. Bu vazifani sharaf bilan ado etish – katta saodat. Toki yoshlar qalbida Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi kabi sarkarda, Beruniy va Xorazmiy kabi olim, Navoiy kabi shoir, Mirzo Ulug'bek kabi astronom bo'lish istagi tug'ilsin. Faqat nomini sanashni bas qilib, ulardan qolgan ma'naviy xazina eshiklarini ochaylik, ulardan qolgan asl ganj bilan tanishtiraylik. Tarixiy shaxslarning yuksak badiiy talqini bugungi millat yoshlarida ajdodlarga nisbatan faqat faxr tuyg'usini emas, ularga ergashish, joiz bo'lsa taqlid qilish istagini uyg'otsin. Farzandlarimizni tariximiz bilan rosmi tanishtirmas ekanmiz, ular ko'ngli dunyoning to'qima qahramonlariga mahliyo bo'lib qolaveradi.

"Naf'ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf' o'zungga ko'prakdurur".

Xurshid ABDURASHID,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti ilmiy xodimi

HAR BIR KUN — IMKONIYAT, KELAJAK UCHUN POYDEVOR

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'linmalarida faxriylarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatib, boy xizmat va hayotiy tajribalaridan keng foydalanish maqsadida, qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.



“Uch avlod uchrashuvi” shaklida tashkil etilgan navbatdagi tadbir Surxondaryo viloyatidagi “Yangiariq” o'quv markazida bo'lib o'tdi. Tadbirida DXX Chegara qo'shinlari faxriylari — iste'fodagi polkovnik Qayum Djumayev, podpolkovnik Faxriddin Salomov, harbiy xizmatchilar, shuningdek joriy yilda oliy harbiy ta'lim muassasalarini bitirgan yosh leytenantlar ishtirok etdi.

Uchrashuv davomida faxriylar tomonidan bugun mamlakatimizda har jihatdan qudratli, professional armiyani shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, harbiy qism va bo'linmalarining zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan ta'minlanganlik darajasi, yurt

himoyachilari hamda ularning oila a'zolarini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalash, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitlarini yaratish borasidagi samarali chora-tadbirlar xususida so'z yuritildi.

Shuningdek, hozirda milliy armiyamiz saflarini malakali, yosh ofitser kadrlar bilan butlash, ularning ilm-fan va axborot texnologiyalari yutuqlaridan xabardor zamonaviy harbiy xizmatchilar sifatida shakllanishlarini ta'minlash maqsadida, oliy harbiy ta'lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar va keng imkoniyatlar haqida ham to'xtalib o'tildi.

O'tayotgan har bir kun — bu imkoniyat va kelajak uchun poydevor ekanini inobatga olgan holda, yosh, shijoatli

harbiylar doimo o'z ustida ishlab, kasbiy mahoratlarini oshirib borishi, dunyoqarashini kengaytirib, mintaqamiz va dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyatni to'g'ri baholay oladigan ham ma'nan, ham jismonan barkamol yurt himoyachisi bo'lishga intilishlari kerakligi faxriylar tomonidan alohida ta'kidlandi.

O'z navbatida, yosh leytenantlar ham tajribali ustozlarga tashrif va ibratli suhbat uchun minnatdorlik bildirib, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash yo'lida ularning ezgu ishlarini davom ettirishga qodir, yurtga sadoqatli munosib avlod bo'lish uchun bor kuch-g'ayratlarini safarbar etishlarini aytib o'tdilar.

— Bugungi tadbir samimiy muloqot tarzida kechdi. Uchrashuv davomida

faxriylarimiz o'zlarining hayot yo'llari, tahsil olgan davrlaridagi mavjud sharoitlar, xizmat davrlaridagi voqealardan so'zlab, moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan fikr-mulohazalarni ham bildirishdi. O'ylaymanki, bu kabi tadbirlar yosh leytenantlarimiz uchun juda foydali bo'lib, ularga yaxshi motivatsiya bera oladi, — deydi mayor Jasur To'laganov.

“Jayhun” musiqiy jamoasi tomonidan namoyish etilgan badiiy chiqishlar, yurtga sadoqat, mehr-oqibat va ezgulikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar ham tadbir qatnashchilariga yanada ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

✓ SAYYOR QABUL

AXBORIY IFLOSLANISHNING OLDINI OLISH UCHUN...

Bugun dunyoda axboriy ifloslanish, shuningdek axborotning nomaqbul shakllari paydo bo'layotgani soxta va yolg'on ma'lumotlardan himoyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik muammosining dolzarblashuvi, axborotning tovar sifatidagi tijoriy funksiyalari oshishi, mediaga qaramlik, feyk axborot va manipulyativ ta'sirning kengayishi aholining, xususan yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu vazifani mediata'limni joriy etmasdan amalga oshirishning imkoni yo'q.

Xo'sh, mediata'limni O'zbekistonda qanday joriy etish mumkin? Axborot iste'molining qanday o'ziga xosliklari inobatga olinishi kerak? Milliy asoslar nimalardan iborat?

Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ko'magi bilan o'tkazgan kichik tadqiqotimizda respublikaning barcha hududidan 7 827 nafar yosh qatnashdi.

Sotsiologik so'rov natijalariga asoslanib aytish mumkinki, o'zbekistonlik yoshlarning raqamli olamga murojaat imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ular mediadan, xususan internetdan faol foydalanmoqda. Auditoriyaning axborot olish manbasi, media bilan munosabatlarini aniqlash maqsadi ko'zlangan “Axborotni ko'proq qayerdan olasiz?” degan savolga ishtirokchilarning 43 foizi ijtimoiy tarmoq va messenjerlar, 36,6 foizi internet saytlari, 0,3 foizi gazeta-jurnal, 2,9 foizi televideniye, 1 foizi radio, 7,4 foizi kitob, 9,7 foizi ota-ona, o'qituvchi va do'stlar bilan muloqotdan, degan javoblarni bergan.

“Kuniga necha soat internetdan foydalanasiz?” degan savol natijalariga ko'ra yoshlarning 4,9 foizigina har kuni internetdan foydalanmasligi ma'lum bo'ldi. Ishtirokchilarning asosiy qismi esa 1 soatdan 12 soatgacha bo'lgan vaqt oralig'ida faol foydalanadi: 12,5 foizi — 1 soatgacha, 34,4 foizi — 1-3 soat oralig'ida, 32,4 foizi — 3-5 soat, 13,1 foizi — 6-12 soat oralig'ida. 12 soatdan ko'p foydalanuvchilar soni 2,7 foizni tashkil etadi. Demak, yoshlarga internetdan ratsional foydalanishni o'rgatish zarur.

“Internetda nima bilan shug'ullanasiz?” degan savolga 54,1 foiz ishtirokchi “saytlardagi yangiliklarni kuzataman”, degan javobni bergan. Demak, internetning imkoniyati keng bo'lish bilan bir qatorda yangiliklar uzatish funksiyasi yetakchilik qiladi. “Qidiruv tizimlaridan foydalanaman”, degan javob 32,9 foizni tashkil etsa-da, respondentlar qidiruv tizimlari optimizatsiyasi tushunchasi bilan tanish emas. So'rovnoma ishtirokchilarining 45 foizi elektron kitob o'qishi, 16,1 foizi onlayn shaklda o'qishi media imkoniyatlaridan ta'lim

sohasida keng foydalanilayotganini tasdiqlaydi. Bu o'rinda shu narsa aniq bo'ldiki, mediadan faol foydalanish mediata'limning tanqidiy tafakkurni shakllantirish maqsadiga mos. Ishtirokchilarning 4,5 foizi onlayn ishlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot 31,5, film va seriallar tomoshasi 15,5, foto va video yuklash 14,7, o'yinlar 3,7 foiz ovoz olgani media bilan munosabatlarni tartibga solish, mediaga foydali maqsadda murojaat etish zaruratini namoyon etadi.

Mediata'lim XX asrning ikkinchi o'n yilligida jahon ta'lim amaliyotida paydo bo'lib, o'tgan asrning 60-yillaridan keyin keng ommalashdi. Jahonda mediata'limni joriy etish tajribasida ustuvorlik kasb etayotgan “Global fikrlash, lokal harakat qilish” tamoyili ham har bir hududda milliy va mahalliy model hamda standartlar yaratishni nazarda tutadi.

Mediata'limning “o'zbek modeli”ni amaliyotga joriy etish axboriy va kiberxavfsizlikni mustahkamlaydi. Auditoriyaning dezinformatsiyadan himoyalash va jamiyatda sog'lom axborot muhitini shakllantirish uchun global tarmoq yoki OAVdan foydalanishda texnik cheklolarni qo'yishga zarurat qolmaydi. Mediaga qaram insonlar soni kamayadi. Sog'lom axboriy muhit iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mediata'limni joriy etishda xorijiy tajribani to'g'ridan to'g'ri ko'chirmay, milliy modelni yaratish zarurati mentalitet, axboriy muhit va axboriy muammolar turlichaligi bilan ham

izohlanadi. Masalan, mediata'limga doir xorijiy qo'llanmalarda axloqiy og'ishlar va diniy masalalardagi ba'zi misollar, qarashlar, nuqtayi nazarlar o'zbek milliy mentaliteti, asriy qadriyatlariga mos emas.

Shuningdek, O'zbekistonda bolalarni salbiy ta'sirli axborot, mediamahsulotlardan himoyalashda oila ijtimoiy institutidan samarali foydalanish zarur. Bola oilasi bilan ko'p vaqt o'tkazishi, oilada uning media iste'moli nazorat qilinishi, ota-onasi bu borada namuna bo'lishi, mediaolam haqida dastlabki ko'nikmalar shakllantirilishi kerak.

Umumiy o'rta ta'limda mediata'limni integratsiyalashgan shaklda, ya'ni boshqa fanlar mazmuniga singdirib o'qitish kerak. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida mediata'limni alohida mustaqil fan, tanlov fan yoki mustaqil kurs sifatida o'qitish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rinda aytganda, mediata'limni didaktik asoslarga suyanib, tarbiya bilan parallel ravishda, oila institutining bevosita ishtirokida joriy etish bolalar, o'smirlar va yoshlarning raqamli salomatligini saqlash, mamlakatda sog'lom va taraqqiyotga intiluvchan axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sanobar JUMANOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
katta o'qituvchisi,
filologiya bo'yicha falsafa doktori
(O'ZA)



(Davomi. Boshi
gazetaning o'tgan sonlarida)

Xalq nima bo'layotganligini tushunib yetguncha ko'plab erkaklar, navqiron yigitlar iblislar qurboniga aylandi. Qatag'onni anglab yetganlar esa dushmanga teng kelib bo'lmasligini ko'rib, jonini asrashga, omon qolishga harakat qildi. Ularning ko'plari qishloq chetidan o'tgan ikki yoni butalar bilan qoplangan Darveshobod arig'ining loyqa suvi ichidan panoh topdi. Muzaffar qori va do'sti Yunusbek ham najot sifatida o'sha tomon chopishdi. U shu holatda o'zining oqibig'i, bosqinchilarga qarshi biror chora ko'rolmaganidan nadomat chekar, onasi Zuhra momoning "Bu baloyi ofatga teng kela olmaysan, biz uchun joningni asra, bolam! Sendan o'zga tayanchimiz yo'q. Senga bir gap bo'lsa, mening o'sha zahoti jon berishim tayin, bolalaring esa xor bo'ladi", degan nolasini qulog'i ostida jaranglardi. "Ha, bunday talato'pda o'lib ketishning ma'nosi yo'q", qotil "ovchilar" ta'qibidan qochish asnosida o'zini qo'lga olishga harakat qilardi u.

Bosqinchi jallodlarning bir to'pi qishloq erkaklari panoh topgan Darveshobod arig'i, qolganlari esa qishloqning ikki yonida joylashgan qo'rg'oncha mahalla va dalalarda hech gapdan bexabar mehnat qilayotgan dehqonlar tomon otlandi. Keng dalalardagi himoyasiz bu insonlar manfur yov uchun tekin o'lja edi. Qo'rg'oncha mahallasiga esa kimdir bu ofatdan xabar bergan chog'i, erkaklar to'rt ayol va o'n yettita yosh bolani somonxona ostidagi yerto'laga yashirib, o'zlari jon saqlash uchun qochishgandi. Qonxo'r askarlar hovli-yu uylarni obdan tintib, o'lja topolmagach, yerto'ladagi bolalarning tovushini payqab qoldi. Garchi u yerda faqat ayollar va bolalar borligiga ishonch hosil qilgan bo'lsa-da, hech ikkilanmay somonxonaga o't qo'ydi. Mal'unlar ichkaridan kelayotgan chinqirig'i va faryodni alanga taftida jilmayib kuzatarkan, qurbonlari halok bo'lganiga ishonch hosil qilgach, u yerni tark etdi.

Darveshobod arig'ida esa bosqinchilarning shafqatsiz jallodligi davom etardi. Uning yonidagi Oqyozi va Hasan ariqlarining suvi tozalash uchun to'xtatilgani sabab, jon saqlovchilarning baxtiga Darveshobod to'lib, pishqirib oqardi. Bahorning bo'tana suvi qay darajada sovuq bo'lmasin, bu jon shirinligi, yashashga bo'lgan ilinj, bosqinchilar qatlonidan omon qolish istagi oldida bilinmasdi, hatto.

Yov askarlari ariq chetidagi do'lana-yu changallarni chopib qurbon izlar, suv ichiga tushishga jazm etmasa-da, kimningdir ko'rinib turgan choponi cheti, qaysi bir begunohning bosh kiyimini mo'ljallab multiqllari uchidagi

nayzani sancha boshladi. Yosh, jussasi kichik qurbonlarini nayzaga sanchib changallar ustiga irtg'itardi. Suvdan bosh ko'targanlar esa qilich tig'i, multiq o'qiga duchor bo'lardi. Kimdir jon talvasasida ingrar, kimdir og'riqdan "oh" chekar, kimdir qochishga harakat qilib, qilich zarbidan yana ariq ichiga yiqilardi. Iblislar multiq uchidagi nayzasini qurbon izlab, qayta-qayta suv ichiga tiqib chiqardi.

Manfur yov askarlari birgina Darveshobod arig'ining o'zida 138 kishini qilich bilan chopib, nayzada sanchib, 32 gunohsizni esa otib o'ldirdi. Minglab insonlarga obihayot ulashgan Darveshobodning suvi shu kuni 170 insonning qoniga belandi. Qonli suv toshdan toshga urilib, nola chekib so'nggi manzilga qadar oqib bordi. Bu yerga yashiringanlardan sanoqli odamlargina omon qoldi. Ular orasida Mirzoakbar domla ham bor edi. Qon hidi ufurib turgan loyqa suv ichida unga ham bosqinchilarning nayzasi necha bor daxl qildi. Ammo mo'jiza sababgina ziyon yetkaza olmadi.

Zuhra momo o'g'li xonadonni tark etgach, ko'zida yosh bilan keliniga tayinladi:

— Qumrixon, o'zingni qo'lga ol, bolam! Tezda Bonuning yuzlariga qorakuya surt, ko'zga tashlanmasin. Keyin bolalarni olib men bilan yur, Muharram o'rtog'imning oldiga kiramiz. Choli biror joyga yashiringan bo'lsa, o'zi yolg'iz qolgandir. Bunday holda bemorni yolg'iz tashlab bo'lmaydi.

Atrofdan kelayotgan dod-u faryod, o'q tovushlarini eshitib, bolalarini bag'riga bosganicha qo'rquvdan qaltirab turgan Qumri opa qaynonasiga so'zsiz itoat etdi.

Ular jonlarini hovuchlab qo'shni hovliga kirishganda Muharram enaning choli Alijon ota hovliga joynamoz solib, muk tushganicha boshini egib ibodatda o'tirardi. U ichkarida yotgan bemor kampirining oldida o'ldirishlarini istamagan chog'i, o'ziga shu qismatni tanlagandi.

Zuhra momo buni ko'rib shoshib qoldi. U ko'cha darvozasi tomon olazarak boqarkan:

— Qo'shni, nega bunday o'tiribsiz, qochsangiz-chi, hozir bosqinchilar kirib keladi. Qayerga bo'lsa ham yashirining, joningizni asrang! — dedi jon holatda yalinib.

— Qarichilik qursin, oyoqlarimda darmon yo'q, saksondan oshdim axir. Qayerga ham qochardim, Zuhrajonu, — u hansirab, zo'rg'a gapirar, hayoti fojiali yakun topishini sezib turardi. — Mendan rozi bo'linglar, bir gap bo'lsa kampirimni yolg'iz qoldirmanglar.

Cholning gapi tugar-tugamas o'lim jazosiga mustahiq jinoyatchini quvib kirgandek, ko'cha darvozasini zarb bilan tepib, jallodlarning ikki askari kirib keldi. So'rining tagida jimgina yotgan it qotillarni sezib, bexosdan ularga tashlandi-yu, bosqinchilardan birining

o'qiga uchrab yuztuban yiqildi. Bu holdan bolalar chinqirib yubordi. Bo'ychan, qirraburun yuzidan zahar tomib turgan ko'kko'z yov askari onalarini quchoqlab titrab yig'lab turgan bolalarni multiq qo'ndog'i bilan turtib, "o'chir" ishorasini qildi va joynamoz ustida hech narsani sezmagandek ibodat qilib o'tirgan cholg'a yaqinlashdi. Ikki jallod uning atrofida aylanib bir-biriga qarab masxaraomuz kularkan, da'fatan o'q ovozi gumburladi-yu, cholning qon aralash ichaklari joynamoz yuzini qopladi...

Xuddi shunday xunrezlik Rajabgardi qishlog'i bilan barobar O'qchida ham boshlangandi. Hovlilar, ko'chalarda yuzlab begunohlarning jasadi yotardi. Ariq qazigani kelgan poyishkanchilar esa endigina tushlikka o'tirgani sabab birortasi qotillar tig'idan omon qolmadi.

Ikki qishloqni ham dod-u faryod tutgan bunday xunrezlikka birinchi bor duch kelib turgan qishloq ayollari butunlay o'zini yo'qotib qo'ygandi. Kimdir qonga belangan navqiron o'g'lini, erini quchoqlab yig'lar, qaysi bir ayol ta'rifga til o'jiz bu ofatdan hushini yo'qotgan, kimdir qo'rquvdan jon taslim qilgandi. Jasadlar orasida qochib ketayotib dushman o'qiga yo'liqqan ayollar va bolalar ham ko'zga tashlanardi.

Ikki qishloqni qonga to'ldirgan istibdod iblisleri yana bir bor mahalla va hovlilarni ko'zdan kechirib, qishloqda tirik erkak qolmaganiga ishonch hosil qilgach, milliy an'ana asosida qurilgan burkorlik, sirkorlik, vassajuftlik uslubidagi uylarga o't qo'ydi. Rajabgardi qishlog'idagi oltmish ikki xonadon kulte-paga aylandi.

Qishloq markazida yana burg'u tovushi eshitildi. Bu gal uning sovuq ovozi qatag'on to'xtatilganidan xabar berardi. Kiyimlariga begunohlarning qoni sachragan qo'li qon jallodlar kalxat kabi har tomondan yig'ila boshladi. Ularning alamzada sovuq nigohida jangda mag'lub chiqqan lashkarlar qiyofasi zohir edi.

Bosqinchilar qishloqni tark etgach, bir muddat o'tib, o'zini qo'lga olgan kayvoni ayollar qishloq qabristoni oldiga yig'ilishdi. Bu pallada zaminga jon baxsh etuvchi quyosh qizil qonga belangan misol yotog'iga bosh qo'ymoqda edi. Qatag'on ovozi yon atrofdagi qishloqlarga yetib borgani sabab u yerdagi erkaklar ham allaqachon uylarini tark etishgandi. Shu sabab ayollar oldida shahid ketganlarni dafn etishdek og'ir majburiyat turardi. Qishloqning zabardast momalaridan bo'lgan Marhamatoy xola yig'ilgan ayollarga yuzlandi.

— Singillarim, egachilarim, o'zingizni qo'lga oling, — u bu so'zlarni harchand qat'iyat bilan aytishga harakat qilmasin lablari titrar, faryod chekishdan o'zini bazo'r tiyib turardi. — Tirik qolgan erkaklarni bugun-erta qishloqqa qaytmasligi aniq. Shuning uchun o'tganlarni o'zimiz dafn qilamiz, — uning bu so'zidan ayollar battar uvvos solib

(voqeiy qissa)

yig'lab yubordi. — Gapimga quloq tuting, azani keyin tutamiz. Chunki havo issiq, har daqiqa g'animat, mayitlarda o'zgarish bo'lishi aniq, — Marhamatoy xolaning jon kuydirib aytgan bu gapidan ayollar sergaklandi. — Hali zamon qorong'i tushadi, tezroq harakat qilmasak bo'lmaydi. Ikki kishi mahallalarda yurib o'tganlarning yaqinlariga yetkazsin. Ularni choyshab yoki ko'rpalarga o'rab, qabristonga olib kelishsin. Ketmon ko'tarishga qodir bolalar, qiz-u juvonlar qabr kavlaydi. Bir to'p ayollar esa ketmonlar bilan eski mozorlarni ochadi. Chunki necha yuzlab odamga toshloq yerdan yangi qabr kavlab yetkaza olmaymiz. Uch-to'rt kishi mash'alalar tayyorlasin. Bu ishni kechasi-yu kunduzi bajarsak ham ikki-uch kun vaqt ketadi. Qani, ilkimizdagi majburiyatni boshladik, qondoshlarim...


Erkak ilkiga yuklatilgan, ayol zoti uchun og'ir bo'lgan bu vazifa qay darajada mushkul bo'lmasin, ular bunga majbur edi. Shuning barobarida, ularning ko'ksidagi dushmanga bo'lgan nafrat va alam qat'iyatli bo'lishga undardi. Ayollar razolat qurboni bo'lgan yaqinlari — tog'dek tayanchlarini o'z qo'llari bilan dafn etishga majbur edilar. Ko'p o'tmay, kun botdi. Ayollar mash'alalar ko'tarib, ming bir azob ila Darveshobod arig'i ichidan, dalalar va qo'rg'oncha mahallalardan qatag'on — qabohat zulmiga uchragan qurbonlarni arava va zambillarda tashiy boshlashdi. Shu orada ham qaysi bir ayol hushidan ketar, qaysi birining chinqirig'i, nolali faryodi tun bag'rini tilib o'tardi.

Kutilmaganda, qabristonga kirib kelayotgan uch-to'rt chog'li erkakning qorasi ko'rindi. Xotinlar ularni ko'rib, dodlab yubordi va erkaklar tomon chopishdi. Rangi aftodahol Mirzoakbar domla ayollarni tinchlantirar ekan, ularning ayriliq va xo'rlik alami bilan to'lgan qalbiga biror taskin so'z aytishga o'jiz edi.

Erkaklar dafn marosimini o'z qo'llariga oldi. Ayollar ularga yordamchi bo'ldi. Domla ko'zida yosh bilan shahid ketganlarning oyoq-qo'llarini to'g'rilab, yuz-boshlarini silab, ochiq ketgan ko'zlarini berkitishga urinar, vaziyat ne chog'liq og'ir va shoshilinch bo'lmasin, o'tganlarni ro'yxat qilib, qaysi qabrga qo'yilganini belgilashni unutmasdi. Chunki bir qabrga ikkita va uchtdan odam qo'yilmoqda edi.

Qabohat bilan boshlangan bu manfur tuzum yillar davomida Rajabgardi yon qancha ko'zga ko'ringan erkagini o'z domiga tortishini, ularga hatto ona yurt tuprog'i so'nggi manzil bo'la olmasligini xalq anglab yetmagandi hali...

Zulfiya YUNUSOVA,
«Vatanparvar»



BOLA

EKRAN QARSHISIDAGI



Baʼzan uy burchagida har xil oʻyinchoqlar bilan andarmon boʻlgan yoki “zangori ekran”dan koʻz uzmay multfilm koʻrayotgan bolalarni uchratsam oʻylanib qolaman. Beixtiyor oʻzimning bolalik davrim esga keladi. Butun qishloq bolalari yigʻilishardi, oʻshanda. Oramizda moʻylovi sabza urgan oʻsmirlar, boʻyi yetib, yonogʻi rang olib qolgan qizlar ham boʻlardi. Yoshi kattaroqlari turli oʻyinlar oʻylab topishar, kichik bolalar esa kattalarga ergashib chopqilashib yurishardi. Butun mahalla bolalarning quvnoq kulgisiga toʻlardi. Shodon qiyqiriqlarni eshitgan kattalar tinch hayotning nashʼasini tuyardi.

Oʻsha oʻyinlarimizning barchasi harakatlil oʻyinlar edi. Saraton jazirasini-yu chillaning qahraton sovugʻi bizni toʻxtata olmas, aksincha, issigʻ-u sovuqlarga xos oʻyinlarimiz ham bor edi. Eng zavqlisi oʻyinchoqlarni oʻzimiz yasab olardik. Ular “rogatka”, “kamon”, “shayton arava” kabilar edi. Hatto bir safar “deltaplan” yasaganmiz. Yaxshi hamki, hajmini kichikroq qilib qoʻygan ekanmiz, bizni yerdan koʻtarolmadi. Chunki uni boshqaradigan mexanizmi yoʻq edi.

Xullas, biz ulgʻaya boshlagach, oʻzidan oʻzi davra siyraklashdi. Oʻsmirlik davrimizga kelib biz ham sipo tortib qoldik. Hozirgilar esa oʻz uylarida, onalarining bagʻrida oʻynay olishadi, xolos. Baʼzan

mahallada birga oʻsgan tengdoshlar biror sababga koʻra yigʻilishib qolganimizda, oʻsha davrlarni qoʻmsaymiz. “Nega hozirgi bolalar oʻynamaydi?” deb hayron boʻlamiz. Bu savolga hech kim tayinli javob ayta olmaydi.

Masalaga sharoit nuqtayi nazaridan baho beriladigan boʻlsa, bugungi bolalarning bizdan oʻn barobar koʻp oʻynashga haqqi bor. Negaki, bugunga kelib insonning umri bizning davrimizga nisbatan oʻrtacha oʻn yoshga uzaydi. Bizning bolalik paytimizda oʻrtacha umr oltmish yil boʻlsa, bugun yetmishvoy, saksonvoylar gurullatib toʻy qilib, uylanib yotibdi...

Inson yoshiga qoʻshilgan oʻn yilni umrning toʻrt fasliga taqsimlaymiz. Ayon boʻladiki, bugungi bolalarning bizning avlodga qaraganda, ikki yarim yil vaqti koʻp ekan. Xoʻsh, ular bu vaqtdan qanday foydalanishyapti? Ularning yarmi televizor qarshisiga “mixelangan”, yarmi esa kompyuter bilan band. Ayrim yerga ursa koʻkka sapchiydiganlarni hisobga olmasangiz, qolganlari mutlaqo oʻynamaydi. Ota-onasining orzu-havasini amalga oshirish uchun tugʻilgan zahoti aniq bir kasb-hunar oʻrganishga yoʻnaltirilganlar ham yoʻq emas. Bu yaxshimi yoki yomonmi?

Bir hisobda bolaligimni eslab huzurlanganim, maqtanganim oʻrinliday tuyiladi. Axir erta-yu kech televizor, kompyuterga termilib koʻzning nurini boy berish, tana harakatini sustlashtirishdan koʻra, toza havoda, tabiat bagʻrida harakatlil oʻyinlar oʻynab mushaklarni chiniqtirish, oʻzining oʻyinini oʻynash, demak, oʻzgalar hayotiga tomoshabin boʻlib ulgʻayishdan koʻra, oʻz hayotini yashash yaxshi-da.

Bolaligimizda sinfdoshlar, tengdoshlarimiz bilan orzu-havaslarimizni sirlashganimizni eslayman. Barchamiz tezroq ulgʻayishni xohlardig-u, ammo kelajakda kim boʻlish, qaysi kasbni tanlashga doir qarashlarimiz beqaror edi. Baʼzilar egallamoqchi boʻlgan kasbini tez-tez oʻzgartirib turishi sababli, biror kasbga

doir adabiyot-u amaliy koʻrgazmalar bilan tanishib olish haqida oʻylamas, ayrimlar “Dehqon boʻlamiz-da” degan oʻyda oʻta xotirjam edi. Chunki dehqonchilik oʻsha davrda eng oson egallanadigan kasb edi.

Endilikda biz dehqonchilik deb dalaga suv tarab, ekin chopiq qilib yurganlarimiz – asl dehqonchilikning juzʼiy qismi ekani maʼlum boʻldi. Dehqonchilik nima ekani-yu dehqonning kimligi yer egasini topa boshlaganidan keyingina ayon boʻldi. Fermerlik harakati boshlangach, tabiatan dehqonchilikka moyil, hayotini yersiz tasavvur qila olmaydigan haqiqiy dehqonlar bir parcha yerga ega boʻlish uchun astoydil harakat qildi. Qolganlar esa ishsiz qoldi... Endi ular nima qiladi? Diplom yoʻq, hunar yoʻq. Ishlari binoyidek, fermerlar ham yeriga yaqinlashtirmaydi, yumushi bola-baqrasidan ortmaydi. Demak, dehqonchilikning masʼuliyati kam, javobgarligi yoʻq tinchgina kasb deb hisoblaganlar ham yutqazishdi. Mana, “Boshidan suvning bir oʻzanga solib yuborilmagani”ning oqibati.

“BOLAJON, KIM BOʻLMOQCHISAN?”

Kompyuter oʻyinlari-yu televizor qoshiga “mixelan”gan bolalarni hisobga olmasangiz, bir maqsad sari yoʻnaltirilganlar koʻp narsa yutadi. Yoʻnaltirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: bola gapga tushunadigan boʻlib qolganidan soʻng unga ulgʻayganda qaysi kasb egasi boʻlishi lozimligi uqtiriladi. Keyin oʻsha bolaning oʻyinlari ham shunga moslashtiriladi. Uning oʻyinida ota-onasining xohishi aks etadi. Maktab davrida ham asosiy eʼtibor tanlangan kasbga qaratiladi, qoʻshimcha darslar olinadi va qarabsizki, bir yoʻldan chalgʻimay ketayotgan bola oliy oʻquv yurtiga kirguniga qadar tayyor kadr boʻladi. Yoshlarimiz tarbiyasi, ularning kelajagi toʻgʻrisida gap borganda masalaning ana shu jihatiga jiddiy eʼtibor bermoq lozim. Chunki hozir ham farzandlarimizning maʼlum bir qismigina kichik yoshdalgidan bir kasbga yoʻnaltirilmoqda. Aksariyati esa xuddi bizning davrimizdagidek xotirjam ulgʻaymoqda.

Amerikaning sobiq prezidenti Bill Klintonning rafiqasi Xillari Klintonning xotirlashicha, universitet talabasi paytida Klinton bilan tanishganida u oʻzini Amerikaning boʻlajak prezidenti deb tanishtirgan ekan. Demak, Klinton talabalik davridanoq oʻz kelajagiga ishongan. Chunki bolaligidanoq unga shu gap muttasil uqtirib borilgan. Buning uchun u nimalarni oʻrganish, oʻzini qanday tutish, aholining qaysi qatlami bilan yaqindan tanishish, siyosiy davralarda ishtirok etish uchun kimlar bilan hamkorlik qilish va boshqa masalalarda puxta bilim hamda psixologik tayyorgarlikka ega boʻlgan.

Amerika Qoʻshma Shtatlarida mazkur tajriba keng qoʻllaniladi. Bu juda samarali usul. Inson bolaligidanoq bir kasbga yoʻnaltirilgandan keyin u, tabiiyki, bu kasbni miridan sirigacha oʻrganib oladi, mustaqil ish boshlaganda esa u ish oʻrganish ustida emas, oʻz sohasini yangi ixtirolar bilan boyitish uchun bosh qotiradi. Aksariyat kishilar buni Amerika tajribasi deb biladi. Bu xato. Tarbiyaning bu usuli aslida Sharqda, yaʼni oʻzimizda keng tarqalgan. Amerikaliklar uni yanada takomillashtirib, amalda joriy etishgan. Sharqda dastlab u mavjud boʻlgan, kosibning bolasi kosiblikka, temirchining bolasi temirchilikka, shahzoda podshohlikka tayyorlangan. Juda kam hollardagina bolalar ota kasbi oʻrniga boshqa kasbga oʻrgatilgan. Eʼtiborga molik joyi shundaki, bolaga faqat hunar oʻrgatish bilan cheklanilmagan. Unga oʻsha oʻrganayotgan hunarida ish boshlaganidan soʻng jamiyatda qanday mavqega ega boʻlishi, qaysi toifa bilan qay yoʻsinda muomala qilish kerakligi puxta oʻrgatilgan. Hunar oʻrganish vositasida bola hayotga tayyorlangan.

Shuningdek, Sharq mamlakatlarida oddiy fuqarolar kabi shahzodalarga ham saltanat ishi qatorida bir hunar oʻrgatish urf boʻlgan. Jumladan, Kaykovus “Qobusnoma” asarida yozishicha... “Xos kishilarning farzandlariga adab va hunardin yaxshiroq meros yoʻqtur va omiy xaloyiqning farzandlariga hirfa (*savdo, hunar*), pesha (*kasb*)din yaxshiroq meros yoʻqtur. Pesha qilmoq (*oʻrganmoq*) muhtashamlarning farzandlariga nomunosib koʻrinur. Ammo pesha haqiqatda barcha hunarlarning ulugʻidir. Agar xos odamlarning farzandi yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni qilmasa, ayb emasdur. Hunar esa bir kun ishga yaragusidur”.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhod oʻtkir zehni tufayli barcha ilmlarni qisqa fursatda oʻrganib olgach, Boniydan meʼmorlik, Moniydan naqqoshlik, Qorandan tosh-taroshlik sirlarini oʻrganadi. Farhod arman elining eʼtiborini savlatli shahzoda sifatida emas, usta hunarmand sifatida qozonadi. Shirinning muhabbatiga odamlarga ezgulik ulashuvchi samimiy inson boʻlgani uchun sazovor boʻladi. Bu doston Husayn Boyqaroning oʻgʻli – shahzoda Badiuzzamonga bagʻishlangan. Demak, mazkur asar vositasida shoir shahzodalarga hunar oʻrganishni targʻib etgan.

KIM YAXSHI YASHASHGA HAQLI?

Bolani tugʻilgan zahoti bir maqsad sari yoʻnaltirish haqida oʻylashning afzal jihatlari koʻp. Bunda baʼzan bolakayning oʻzi kasb tanlaydi. Yaʼni bu uning qaysi oʻyinchoqlarni boshqalaridan koʻproq yoqtirishi yoki qanday sport turiga moyilligida koʻrinadi. Buni ota-ona oʻz vaqtida ilgʻay olishi ijobiy natija beradi. Masalan, Alisher Navoiy toʻrt yoshida “Mantiq ut-tayr”ni yodlab olgan, Rustam Qosimjonov bolaligidan shaxmatga mehr qoʻygan. Biroq onalari bizning onamiz kabi ayagan. Alisher Navoiydan sevimli asari yashirib qoʻyilgan. Ammo u asarni yodlab olishga ulguragan edi. Sheʼriyatga astoydil mehr qoʻygani, soʻz sanʼatidan boshqa narsani oʻylamagani uchun oʻn ikki yoshida “malik ul-kalom” Lutfiyni qoyil qoldirdi.

Rustam Qosimjonovga onasi shaxmat oʻynashni taqiqlab qoʻygan edi. Miyasi zoʻriqmasin degan-da. U yotar chogʻida shaxmatni oʻzi bilan koʻrpaning tagiga olib kirib ketar ekan. Bu yoʻlda oʻta qatʼiyatli boʻlgani uchun ham koʻpchilik tengdoshlari hali qaysi kasbni tanlashni bilmay yurgan vaqtlarda u tanilib qolgan sport ustasi maqomini qoʻlga kiritgan edi. Yana shuni ham ishonch bilan aytish mumkinki, Qosimjonovning ayrim tengdoshlari hali ham tayinli biror kasbning etagini tuta olgani yoʻq.

Balki, sheʼriyat bilan sport kasb emas, qismatdir. Ammo kasbga bolaligidan shunday mehr qoʻyganlar katta natijaga erishgan.

Jumladan, dunyo boʻyicha birinchi raqamli milliarder Bill Geyts bolaligidanoq kompyuter jinnisi boʻlgan. Hech narsaga chalgʻimasdan kompyuter titkilashi bora-bora unga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochdi. Oʻzimizda ham bolaligidanoq otasining savdo ishlariga koʻmaklashib yurib, tijorat sirlarini puxta oʻrganib olgan yoshlar ulgʻayib katta ishlarga qoʻl urgach, jurʼatli biznesmenlar boʻlib yetishganiga guvoh boʻlganmiz. Shunday ekan, bolalarimizni mustaqil hayotga esini tanigan kundanoq tayyorlashni boshlashimiz, buning uchun, avvalo, ota-onaning oʻzi uzil-kesil bir qarorga kelib olishi zarur. Aks holda farzandlarimiz mustaqil hayotga oʻz bilimiga ishongan, jamiyatdagi mavqeyini toʻla anglagan holda dadil qadamlar bilan kirib kela olmaydi. Bu esa ularning hayotda erishishi mumkin boʻlgan yutuqlarini batamom cheklab qoʻyadi yoki nihoyatda kechiktirib yuboradi.

D. JUMAQULOV,
jurnalist

BIRINCHI TIBBIY YORDAM — O'LIM XAVFIDAN ASRAYDI

Yoqimsiz holatlar kutilmaganda ro'y berishi mumkin, shu bois har qanday vaziyatda ham ularga tayyor turish kerak, ayniqsa, boshqa bir insonning hayoti sizning ko'nikmalingizga bog'liq bo'lsa. Quyida biz birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha har bir inson bilishi kerak bo'lgan foydali ma'lumotlarni e'tiboringizga havola etamiz.

SUN'IY NAFAS

Sun'iy nafas har bir inson bilishi kerak bo'lgan elementar reanimatsion xatti-harakatlar sirasiga kiradi. Jabrlanuvchiga kislorod yetkazish uchun shunchaki, yuzma-yuz nafas olishning o'zi kifoya, deb o'ylamang. Birinchi navbatda, nafas yo'llarini tekshirib, zarurat tug'ilgan taqdirda, biror bir predmet, qon yoki balg'am bo'lsa, tashqariga chiqarib tashlang. Ilk 10 havo yuborishni tezlikda bajaring, keyin esa bir daqiqada 20 nafas ritmini qo'llang. Yodingizda bo'lsin: agar insonning ko'krak qafasi ko'tarilayotgan bo'lsa, demak, barchasi to'g'ri ketmoqda.

YURAK MASSAJI

Agar jabrlanuvchining pulsi yo'qligini sezsangiz, yurakni massaj qilish kerak. Ko'krak qafasining eng qisqa va tor qismini aniqlang va uning chetidan 2-3 santimetr o'lchang — bu kompressiya nuqtasi bo'ladi. Kaftning asosini shu yerga qo'ying, uni ikkinchi kaft bilan yoping — bosim aynan shu qismlar bilan amalga oshiriladi. Ritmik bosimlarni kuchli, vertikal yo'nalishda amalga oshiring. Biroz ter to'kishingizga to'g'ri keladi: chastota daqiqasiga 110 martani tashkil qilishi kerak. Puls bo'lsa, yurak massajiga hojat yo'q.

GEYMLIX USULI

Bu usulni qo'llashda jabrlanuvchining orqasiga turib olasiz, uni kindik sohasining yuqori qismidan, qovurg'alar ostidan ushlaysiz. Shundan so'ng kuch bilan uning qornini bosasiz — bu harakatni odatda bir necha marta takrorlashga to'g'ri keladi.

HUSHDAN KETISH

Hushdan ketish kislorod yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladi — miyada qon aylanish buziladi va organizm tanani o'chirishga buyruq beradi. Bu yerda bir narsani anglab yetish muhim — inson tetiklashtiruvchi havo oqimi ko'paygandagina tezroq o'ziga keladi. Jabrlanuvchini oyna yaqiniga yotqizing va uni havoni to'suvchi kiyim yoki aksessuarlardan xalos qiling. Yuziga suv purkash zarar qilmaydi, agar qo'l ostingizda dorilar qutisi bo'lsa, nashatir spirtidan foydalaning.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIDAN ZAHARLANISH

Oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanganda, birinchi navbatda, oshqozonni zaharli yegulik qoldiqlaridan tozalash kerak. Buning uchun eng yaxshisi — bir litr suvga 10 gramm tuz solingan suvni ichish maqsadga muvofiq. Qayd qilish

holatini keltirib chiqarish uchun bunday suvning 2-3 piyolasi yetarli.

YORDAM KO'RSATISHDA SIZ YO'L QO'YADIGAN XATOLIKLAR

Kuygan joyga yog' surtish

Teri kuyganda darrov g'oz moyini qidirishga tushsangiz, xato qilasiz. Moyni kuygan joyga surtishingiz zahoti u yerda parda hosil bo'lib, havo kirmaydi, oqibatda yara bitishi qiyin bo'lib, ancha vaqtgacha og'ritadi ham.

Nima qilish kerak: eng yaxshisi, kuygan joyni sovutish kerak. Agar kichik joy kuygan bo'lsa, sovuq suvga tuting. Xalqona choralardan eng samaralisi — xo'jalik sovunidan surtish. Sovun bu ishqor, kuyish esa kimyoviy ta'sir. Ishqor doim kislotali ta'sirni bosadi, qarabsizki, kuygan joyda pufak ham hosil bo'lmaydi, achishmaydi ham. Bu aytganlarimiz kunda yuz beradigan kuyishlarga tegishli. Ammo jarohat ancha chuqur va og'riqli bo'lsa, uni sovuq suvda yuvib, ustiga steril mato (*paxta emas*) qo'yib, tezroq shifoxonaga borish kerak.

Yod va brilliant yashili foyda beradimi?

Yiqilish natijasida qo'l yoki tizzada katta, ochiq yara paydo bo'lsa, darrov yod yoki brilliant yashili bilan ishlov berishga shoshilmang. Bu shikastlangan terini yanada kuydirib, keyinchalik chandiq qoldirishi mumkin.

Nima qilish kerak: yarani mikroblardan tozalash uchun vodorod peroksidi yoki boshqa bir antiseptik vositani jarohat chetiga surtib, ustidan steril bintda bog'lang. Mayda kesilish va yaralar uchun yod hamda brilliant yashilidan bemaol foydalanish mumkin.



Titroq bosdimi, o'ranishdan naf yo'q!

Isitma chiqqanda odam qaltiray boshlaydi. Bunday paytda issiq o'rangandan foyda yo'q. Shuning uchun eng birinchi navbatda tana haroratini tushirish kerak bo'ladi.

Nima qilish kerak: peshonaga sovuq suvda ho'llangan dokani qo'yib, shifokor ko'rsatmasiga ko'ra, isitma tushiruvchi dori iching.

Tiqilib qolganda yelkaga urish

Ovqat paytida tiqilib qolgan odamning yelkasiga ayamay qoqamiz. Shu bilan sho'rlikka yordam bergan bo'lsak, qaniydi?! Nafas yo'llariga yot jism kirib qolganida uni yo'tal orqali chiqarmoqchi bo'lamiz. Bu tabiiy usul. Lekin eng yomoni, ovqat paytida tiqilib qolgan odamning yelkasiga qoqsangiz, yot jism yanada ichkari kirib, nafas yo'llarini butkul yopib qo'yishi ham mumkin.

Nima qilish kerak: oldinga egilib, chuqur, sekin nafas olib, chiqarish kerak. Bordi-yu, odam nafas olishga qiynalsa, uni oldinga egiltirib, kaft qirrasini yelkadan bo'yinga harakatlantiriladi.

Burun bitsa...

Burun bitsa, nimalar qilmaymiz. Qopchaga qizdirilgan qum, tuz, pishgan tuxum solib ikki qosh orasiga qo'yamiz. Hatto bu holat yoqib, ancha yengillab qolamiz. Aslida, burun bitsa issiq narsa qo'yib bo'lmaydi. Bu odam uchun xavfli. Chunki

tumov kuchli bo'lsa, burundagi tomirlar kengayadi. Issiqlik shishni yanada ko'paytiradi, natijada shilimshiq chiqib ketish o'rniga burunda yig'ilaveradi. Vaqtida chora ko'rmasangiz, yallig'lanish miyaga yetib borishi mumkin.

Nima qilish kerak: bunday paytda tomirlarni qisqartirish kerak. Tomchi dorilar esa aynan shu vazifani bajaradi.

Jarohat issiqni yoqtirmaydi

Pay cho'zilishi, urilish, bo'g'im chiqishida tanada shish paydo bo'ladi. Bunday paytda ham shikast yetgan joyga issiq narsa qo'ymang. Og'riq battar kuchayib, shish kattalashishi mumkin.

Nima qilish kerak: harakatni cheklash, og'rigan joyga muz qo'yib, tezroq travmatologiya bo'limiga borish kerak.

Burun qonasa, boshni orqaga tashlamang!

Ko'pincha, burunimiz qonasa, boshni orqaga tashlab o'tiramiz. Lekin bu mutlaqo noto'g'ri. Qon halqum, oshqozonga borib, sizni battar behuzur qilishi mumkin.

Nima qilish kerak: bukchaymasdan tik o'tirib, bosh biroz oldinga engashiriladi. Vodorod peroksidi eritmasida paxtani namlab, burun ichiga joylanadi. Ikki qosh o'rtasiga esa muz qo'yiladi.

G. HOJIMURODOVA
tayyorladi.



KECHA, BUGUN VA ERTAMIZ UYG'UNLIGI

Tarix va kelajak mushtarakligini ta'minlash bugungi avlodning burchi hisoblanadi. Bu borada harbiy prokuratura organlari tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Termiz va Urganch harbiy prokuraturalari tashabbusi bilan tashkil etilgan "Uch avlod uchrashuv"lari shunday tadbirlarning amaliy davomi bo'ldi. Ularda harbiy qism va muassasalar qo'mondonliklari vakillari, muddatli hamda kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar, pensiyadagi, shu jumladan, baynalmilalchi faxriylar hamda o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

Faxriylar o'z tajribalaridan so'zlab bergan hayotiy saboqlar, chunonchi, qalblarida jo'sh urgan vatanparvarlik tuyg'usi har qanday mashaqqatli vaziyatda ularga kuch va shijoat bergani, xalqimiz oldidagi farzandlik burchi esa doim o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishga undagani, ayniqsa, yoshlardagi Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat hissini yanada to'qinlantirib yuborganligini,

ularning yuz-ko'zlaridan anglash qiyin bo'lmadi.

Muloqotlar ochiq, samimiy ruhda o'tib, savol-javoblarga boy bo'ldi.

Muddatli harbiy xizmatchilar va o'quvchi-yoshlarning Vatan hamda sadoqat haqidagi jonli kuy-qo'shiqlari tadbirga bayramona shukuh bag'ishladi.

Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

SAYYOR QABUL

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari qo'mondonliklari vakillari tomonidan Samarqand shahrida ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.



NAVBATDAGI MANZIL — SAMARQAND

Unda Samarqand va Kattaqo'rg'on garnizonlarida joylashgan harbiy qism va muassasalarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, shuningdek fuqarolar ishtirok etdi.

Qabulda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining birinchi o'rinbosari O. Xolboyev va

boshqa rahbarlar tomonidan ko'plab murojaatlar tinglandi.

Jarayonda turli masalalarga oid jami 185 ta murojaat kelib tushdi. Shundan 34 tasi joyida ijobiy hal etilgan bo'lsa, 57 ta murojaat yuzasidan huquqiy tushuntirish berildi va 94 tasi nazoratga olingan holda mas'ul tashkilotlarga yuborildi.

Adliya mayori Gulchehra TURSUNOVA,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

ESLATMA

YONG'INDAN XABAR BERISH MOSLAMALARIDAN FOYDALANISH TARTIBI



Yong'indan xabar beruvchi moslamalar binolarda favqulodda yong'in sodir bo'lganda, yong'inni tezda bartaraf etish, binodagi shaxsiy tarkib, buyum va jihozlarni xavfsiz joyga evakuatsiya etilishida tezkor choralar ko'rish uchun harbiy qism bo'yicha navbatchi (*yong'in o'chirish bo'linma*)larini ogohlantiradi.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalar harbiy qism va muassasalardagi yong'in va portlashga xavfli bo'lgan binolarda o'rnatiladi va binoda yong'in xavfsizligini ta'minlashda muhim vazifani bajaradi.

Yong'indan xabar beruvchi uskunalar qo'yidagi moslamalardan iborat:

1. Ogohlantiruvchi moslama – bu bino ichida yuqori issiqlik yoki tutun hosil bo'lganda yuqori sezuvchanlik xususiyatiga ega hisoblanib, binoda yuqori darajadagi issiqlik yoki tutun hosil bo'lganligi

to'g'risida nazorat-qabul qilish moslamasi signal yuboradi.

2. Nazorat-qabul qilish moslamasi (PPSU) – ogohlantiruvchi moslamalardan kelgan signalni qabul qilib, moslamada o'rnatilgan ko'rsatkich kalitlar orqali qaysi binoda (*xonada*) yong'in sodir bo'lganligi to'g'risida ovoqli signal orqali navbatchilarni ogohlantiradi.

3. Yong'in haqida ogohlantiruvchi signal (IPR) – navbatchilar o'z navbatida sodir bo'lgan yong'in to'g'risida, yong'in haqida ogohlantiruvchi signal yoki aloqa vositasi orqali yong'in o'chirish

bo'linmalari va shaxsiy tarkibga belgilangan tartibda yong'in sodir bo'lganligi to'g'risida xabar beradi.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalarning tizimini asossiz ravishda o'chirib qo'yish, ularni o'zgartirish, moslama (*datchik*)larni o'zboshimchalik bilan o'rni almashtirish taqiqlanadi.

Sutkalik navbatchilar yong'indan xabar beruvchi moslamalarning sozligini doim nazorat qilib, favqulodda yong'in sodir bo'lganda yong'in joyiga zudlik bilan yong'in o'chirish bo'linmasini chaqirish, signalni qabul

qilish pultidagi kalit qaysi bino (*xona*)dagi yong'in moslama (*datchik*)ga tegishli ekanligini bilishlari shart.

Yong'indan xabar beruvchi moslamalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari olib borish maqsadida ular vaqtinchalik o'chirilganda, bu to'g'risida binoga mas'ul shaxs tomonidan harbiy qism uy-joydan foydalanish xizmati boshlig'i hamda yong'in o'chirish bo'linmasi ogohlantirilishi lozim.

Mayor P. BOYQO'ZIYEV,
Samarqand garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi boshlig'i

SIRDARYOLIK

YOSHLARNING NATIJALARI



Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Sirdaryo tumanida ham muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi tuman o'quv sport-texnika klubida olib borilayotgan ishlar shular jumlasidandir.



Ayni paytda tuman o'quv sport-texnika xodimlari tomonidan yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarini bugungi kun talabi asosida tashkil etish maqsadida harbiy-vatanparvarlik targ'iboti faol tarzda olib borilmoqda. Chunonchi, tuman mudofaa, xalq ta'limi, Yoshlar ishlari agentligi bo'limlari, harbiy qismlar, Paxtakor, Furqat mahallalari hamda 1-, 27-, 42-umumta'lim maktablari hamda Ichki ishlar vazirligi akademik litseyi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari shular sirasidandir.

– Albatta, "Vatanparvar" – mening tanlovim!", "Vatanparvar" tashkiloti oyiligi, "Vatanparvar" tashkiloti mening taqdirimda" kabi mavzularda o'tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlarning qalbida ona Vatanga sadoqat hissini, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi, – deydi O'STK boshlig'i Galib Amzayev. – Shu bois ham klubimiz jamoasi tomonidan tuman yoshlarining jismoniy, ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga ko'maklashish maqsadida ularga sportning

texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Shu kunlarda klubda faoliyat yuritayotgan "Havo militig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiya va to'garaklarga 30 nafarga yaqin yosh jalb etilgan. Sportchi yoshlar o'z navbatida, nufuzli musobaqalarda yaxshi natijalarga erishmoqda. O'q otish sporti bo'yicha Koreya davlatining Doyega shahrida o'tkazilgan XV Osiyo chempionatida ishtirok etgan merganimiz Muhammadyusuf Haydarov faxrli 3-o'rinni egalladi. Shuningdek, Mirzaobod tumanida o'tkazilgan viloyat miqyosidagi o'q otish musobaqasida ishtirok etgan klub a'zolari – Muqaddas Abduqahhorova, Dilshod Muxtorov, Nozima Abudhalimova, Hojiakbar Haydarov kabi sportchilar faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur o'quv sport-texnika klubida ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash borasida ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. Belgilangan reja asosida joriy yilning o'tgan davrida 375 nafar "B", "BC" toifali haydovchi tayyorlandi. Shuningdek, "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan 15 kishi imtiyoz asosida haydovchilik kurslarini

muvaffaqiyatli ravishda bitirib, mustaqil hayotga yo'llanma oldi. Hududdagi harbiy qismlarning biri bilan imzolangan memorandumga asosan, 45 nafar harbiy xizmatchi ham haydovchilik kurslarida tahsil olmoqda.

Bugungi kunda O'STK jamoasi tarkibida katta mehnat tajribasiga ega mohir o'qituvchilar hamda amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar talaygina. Mamadali Bakaxolov, Orif Satkinov, Mixail Ganiyev, Botir Mahkamov, Kozimjon Haydarov, Shahboz Nazarov singari o'qituvchi va murabbiylar shular jumlasidan. Tinglovchilarning imtihon hay'ati qabul qilgan sinovlardan muvaffaqiyatli o'tayotganliklari ham ana shunday ustozlar faoliyati ijobiy samara berayotganligining isbotidir.

Ayni kunlarda ham tashkilotda turli rusumdagi avtomobillarni mahorat bilan boshqarish, xavfsiz harakatlanish bo'yicha darslar olib borilib, bo'lajak haydovchilarga nazariy va amaliy tushunchalar berilmoqda. O'z navbatida, tinglovchilarning kasb-hunarlarini puxta egallab olishlari uchun klubda zarur shart-sharoitlar yaratilgan.



✓ **HAMKORLIK**

TASHKILOT FAOLIYATI BILAN TANISHDI

Germaniya Federativ Respublikasi Ichki ishlar va Vatan vazirligi huzuridagi migratsiya masalalari bo'yicha hukumat maxsus vakili Yoaxim Shtamp boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi Chilonzor tumani o'quv sport-texnika klubiga tashrif buyurdi.



Uchrashuv mobaynida delegatsiya a'zolari "Vatanparvar" tashkiloti tizimida texnik kasb mutaxassislari, jumladan, turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, mavjud moddiy-texnik baza va o'quv dasturlari hamda haydovchilik kasbini puxta o'rgatishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni ko'zdan kechirdi.

"Maqsad – Germaniyaga haydovchilik bo'yicha ishga boradigan o'zbekistonliklarning ushbu kasbga tayyorlanish jarayonini o'rganish hisoblanadi. Negaki, hozirda mamlakatimizda asosan "D" va "E" toifalari bo'yicha haydovchilarga talab yuqori. Bundan tashqari, Yevropada haydovchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan o'zbekistonliklar o'zlarining anchayin intizomligi

bilan ajralib turishiga guvoh bo'ldik", dedi Germaniya hukumati maxsus vakili Yoaxim Shtamp "Vatanparvar" tashkiloti mas'ul xodimlari bilan uchrashuvi chog'ida.

Shu kunlarda Germaniya Federativ Respublikasi Ichki ishlar va Vatan vazirligi huzuridagi migratsiya masalalari bo'yicha hukumat maxsus vakili Yoaxim Shtamp boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Delegatsiya vakillari hamda tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari o'rtasida Germaniyada ishlash istagini bildirgan fuqarolarimizga nemis tilini o'rgatish, ularni kasb-hunarga o'qitish bo'yicha yangi loyihalar ishlab chiqish, Germaniyada Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi vakolatxonasini ochish kabi yo'nalishlarda muzokaralar olib borildi.

✓ **KONFERENSIYA**

YANGI MUDDATGA SAYLANDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Farg'ona viloyati kengashida davlat va jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat delegatlar ishtirokida navbatdagi konferensiya bo'lib o'tdi.



Konferensiyada viloyat kengashi raisi Mahmud Mirzayev so'nggi besh yil davomida hududiy kengash tomonidan aholi, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berdi. Hisobot delegatlar tomonidan qabul qilindi.

Konferensiyadan so'ng birinchi tashkiliy yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda tashkiliy masalalar ko'rib, M. Mirzayev bir ovozdan yangi muddatga viloyat kengashi raisi etib saylandi. Delegatlar tashkilotning bir qator rahbar xodimlarini ham tegishli lavozimlarga loyiq deb topib sayladi.

Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti Sirdaryo viloyati kengashida bo'lib o'tgan navbatdagi konferensiyada kengash raisi Ulug'bek Imamkulovning so'nggi besh yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti tinglandi. Yig'ilishda tashkiliy masalalar ko'rib, U. Imamkulov delegatlar tomonidan yangi muddatga tashkilotning viloyat kengashi raisi etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

✓ **MUDOAAGA KO'MAKLASHUVCHI "VATANPARVAR" TASHKILOTLARIDA**

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Romitan tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy yangi o'quv binosida ish boshladi. Gap shundaki, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati tashabbusi bilan O'STK binosi yangidan barpo etildi. Zamonaviy binodagi shart-sharoitlar, turli rumumdagi avtomobillar, kompyuterlar jamlamasi, sinf xonalari, o'quv avtodrom va boshqa o'quv jihozlari xodimlarning bundan keyin samarali mehnat qilishlari uchun yanada keng imkoniyat yaratdi.

ZAMONAVIY YANGI O'QUV BINOSI



Ta'kidlash joizki, mazkur dargoh endilikda nafaqat Romitan tumanida, balki Buxoro viloyatidagi haydovchilar tayyorlovchi nufuzli o'quv maskanlaridan biriga aylandi. Chunki klubda yoshlar bandligini ta'minlash, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, harbiy-vatanparvarlik targ'iboti hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida muayyan ishlar bajarilmoqda.

– Endilikda yangi zamonaviy binoda faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotimizda nafaqat haydovchilar tayyorlash borasida, balki sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi, – deydi O'STK boshlig'i Murodjon Hojiyev. – Yaratilgan qulayliklar tufayli endilikda yoshlar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish ham muntazam yo'lga qo'yildi. "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Karting" va "Motokross" kabi sportning muhim turlari bo'yicha seksiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. To'garak a'zolari tuman, viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtirok etib, yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda. Aziza Hayotova, Bekzod Hikmatov, Mehrnoz Halimova, Navro'zjon Nurboyev kabi sportchilar erishayotgan muvaffaqiyatlar yoshlarimizni jismoniy va

ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarimiz salmog'i ortayotganligidan dalolatdir.

Ayni paytda O'STKda malakali haydovchilar tayyorlash borasida ham yaxshi samaradorlikka erishilyapti. Qulay sharoit tufayli "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Albatta, yoshlar qalbiga Vatanga muhabbat hissini singdirishda ko'pni ko'rgan keksa avlodning maslahat va yo'l-yo'riqlari katta ahamiyatga ega. Shu bois ham reja asosida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar hamda turli soha vakillari ishtirokida uchrashuvlar o'tkazish ham an'anaga aylangan.

Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, ushbu maskanda ham o'z kasbining past-u balandini yaxshi biladigan tajribali, serg'ayrat o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar mehnat qilishadi. Bu esa klubda malakali haydovchilar tayyorlash, yo'l harakati qoidalarini keng targ'ib qilish, yo'llarda harakatlanish madaniyatini oshirish va boshqa yo'nalishlarda ko'plab yutuqlarni egallashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Akbar ALI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashida O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi qoshidagi harbiy-vatanparvarlik kengashi tomonidan "OAVda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritishning o'ziga xos jihatlari" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi.

Harbiy islohotlar qanday yoritilmoqda?



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot

SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI



Unda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi qoshidagi harbiy-vatanparvarlik kengashi a'zolari, kuch tuzilmalari tarkibiga kiruvchi vazirliklarining axborot xizmati mas'ul xodimlari, harbiy jurnalistlar, markaziy ommaviy axborot vositalarida harbiy sohani yoritishga ixtisoslashgan jurnalistlar ishtirok etdi.

Tadbir dastlab O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov uyushma qoshidagi ixtisoslashgan kengashlar oldiga qo'yilgan vazifalar bilan batafsil tanishtirdi. Shuningdek, bugungi tezkor zamonda harbiy sohaga oid imzolananayotgan farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash, xalq va armiya o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga

qo'yish, harbiy islohotlar haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, milliy armiyamiz faoliyati ochiq va shaffofligini ta'minlash, buyuk ajdodlar hamda milliy qahramonlar haqida mediamahsulotlarni tayyorlash, qo'shinlar faoliyatining ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritilishi samaradorligini tubdan yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama etildi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi qoshidagi harbiy-vatanparvarlik kengashi raisi, "Vatanparvar" birlashgan tahririyati bosh muharriri podpolkovnik Ahror Ochilov bugungi kunda

mamlakatimizning harbiy sohada siyosatini ochiq namoyon qilish orqali keng jamoatchilikning harbiy sohaga doir axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish mediamakonning dolzarb vazifalaridan biri ekanini ta'kidladi. Qayd etilganidek, joriy yilning o'tgan davrida Jurnalistlar uyushmasi qoshidagi harbiy-vatanparvarlik kengashi tomonidan Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti va boshqa kuch tuzilmalarining matbuot xizmatlari bilan hamkorlikda milliy armiyamiz faoliyatining ochiqligini ta'minlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida respublika ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikni yaxshilash borasida qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Anjumanda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi qoshidagi harbiy-vatanparvarlik kengashi tomonidan joriy yilning o'tgan davrida milliy OAVda harbiy sohaga oid islohotlar yoritilishi holati tahlil qilindi. O'zbekistonda harbiy jurnalistikaning yetakchi media tarmog'ini tashkil etuvchi "O'zbekiston armiyasi", "Qalqon", "Muhofaza+", "Avtohamroh" jurnallari, "Vatanparvar", "Postda", "Vaziyat" gazetalar va "O'zbekiston" MTRK kanallarida namoyish etilayotgan "Vatanparvar", "O'zbekiston armiyasi", "Armiya sporti" va boshqa kuch tuzilmalari tomonidan tayyorlanayotgan turli nomdagi ko'rsatuvlarni mazmun va sifat jihatdan boyitish, matbuotda e'lon qilingan materiallarning elektron versiyasini o'z veb-saytlarida uzluksiz tarzda joylashtirib borish, harbiy soha haqidagi maqolalarning zamonaviy

elektron manba formatida integratsiyalashtirilishi bugungi davr talabi ekanidan kelib chiqib, tahririyatlar o'z veb-sayti va global tarmoqlardagi rasmiy sahifalarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Jurnalistlarga "Harbiy jurnalistika sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari", "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda "Vatanparvar" tashkilotining o'rni va roli" mavzularida ham atroflicha ma'lumot berildi. Darhaqiqat, harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tahririyatlarni yosh, g'ayratli va shijoatli kadrlar bilan to'ldirish, zamonaviy bilimga ega mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Birgina joriy yilda 45 nafar talaba O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti harbiy jurnalistika yo'nalishining ilk bitiruvchisiga aylandi. 2023/2024-o'quv yili uchun mazkur mutaxassislik bo'yicha bakalavriat ta'lim bosqichiga (*kunduzgi va sirtqi*) 50 ta, magistratura bosqichiga 6 ta qabul kvotasi ajratilgan. Bu esa ushbu oliy ta'lim muassasasida OAVda harbiy sohada islohotlarni yoritishning o'ziga xos jihatlari 6 yillik o'quv dasturi asosida, malakali professor-o'qituvchilar va amaliyotchi-mutaxassislarning ko'magida uzluksiz o'rgatilayotganidan dalolat beradi.

Tadbir so'ngida jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob oldi. Kengash faoliyatini kelgusida yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
«Vatanparvar»



VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti - "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: F-0805
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 462 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya